5. Лутфуллаев И. “Дутор-альт учун мослаштирилган асарлар” Т., “Файласўфлар” нашриёти 2015

Ойдин Абдуллаева ўз суҳбатларида: Мен бу сермашаққат йўлнинг ҳар бир қаричини ўз меҳнатим, санъатга садоқатим билан босиб ўтганимдан фахрланаман. Созанда ўз салоҳиятининг юқори поғонасига кўтарилар экан, у ижрочилик ва ижодкорлик борасида катта тажриба орттириш баробарида санъатнинг изтиробли сўқмоқларида кезинади. Тажриба ва изтироб туйғуси уйғунлиги санъаткорнинг қаршисида ижоднинг сирли тилсимини очади, бу йўлдаги қийинчиликларни енгиллаштиради, – дейди иқтидорли композитор. – Бастакорликни касб эмас, ҳунар деган бўлар эдим. Ҳар қандай ҳунарнинг назарий жиҳатлари сабоқлар жараёнида ўзлаштирилади. Амалий кўникмалар эса устоз-шогирд анъанаси асосида эгалланади. Бундай муносабатлар ўзаро ҳурмат, меҳр асосига қурилган бўлсагина шогирд ижод сирларидан тўла баҳраманд бўлади, устоз эса ўргатиш асносида ҳунарнинг янада юқори поғоналари қадар юксалади. Менинг бахтим шундаки, болалигимданок ўта талабчан устозларга шогирд тутиндим: Маргарита Новикова, Озод Акбаров,

Ҳусниддин Асомов, Убайдулло Қодиров, Мэрзие Халитова, Аваз Мансуров, Тўлқин Қурбонов сингари устозларимдан оҳангларни теран идрок этиш, муסיқий асар муаллифининг ижодий ғоясини англаш санъатини ўргандим. Шахс сифатида шаклланишимда, етук мутахассис бўлиб камолга етишимда ўзимдан кўра устозларимнинг меҳнати кўпроқ, деб ҳисоблайман. Ўзбек халқ чолғуларининг ҳар бири учун басталаган **“Дутор ифори”, “Севинч”, “Байрам уфориси”, “Концерт куйи”** каби куйларимни тинглаган мухлислар гулдурас қарсақлар билан олқишлаганда, кино ва театрлар учун ёзган қатор асарларим уларнинг руҳи ва фалсафасини томошабинга моҳирона етказиб беришга ҳисса қўшаётганини ҳис қилганимда беихтиёр таълим ва тарбиянинг “олтин кесишмаси”ни тополган устозларимга хаёлан таъзим қиламан. Бугун республикамизнинг барча муסיқий таълим муассасаларида фойдаланилаётган ушбу асарларим орқали мени ёшлар таниётганидан, устозлар эҳтиромига сазовор бўлаётганимдан қувонаман.

О.Абдуллаева театр ва кино муסיқаси жанрларида ҳам фаол ижод қилиб келади. Унинг **“Осмоннинг бағри кенг”, “Фариштали аёл”** (С.Сирожиддинов асарлари), **“Кўнглимнинг кўчаси”** (Н.Аббосхон асари), **“Тобутдан товуш”** (А.Қаҳҳор асари), **“Қизи борнинг нози бор”** (Х.Расул асари), **“Паривашга парвонаман”** (Н.Аббосхон асари) сингари муסיқали драма ва комедиялари Муқимий номидаги Ўзбек давлат муסיқали драма театрида сахналаштирилган. 2004 йил **“Ўзбектеатр”** ижодий бирлашмаси томонидан ўтказилган **“30+1”** замонавий театр спектаклларининг Республика танловида **“Энг яхши муסיқали драма учун”** номинациясида **“Осмоннинг бағри кенг”** (С.Сирожиддинов асари) спектаклига ёзган муסיқаси учун ғолиб деб топилган. Ўзбекистон Давлат Миллий академик театрида испан драматурги А.Кассоне асари асосида сахналаштирилган **“Дарахтлар тик туриб жон беради”** спектаклига муסיқа басталаган. **“Севги фариштаси”, “Ёдгор”** телесериаллари, **“Ҳикмат чироғи”** номли болалар фильми ва бошқа муסיқа муаллифи.

О.Абдуллаева ўқув адабиётлари ва мақолаларнинг ҳам муаллифи: **“Ансамбль чолғуларини ўрганиш”,** муסיқа ва санъат мактаблари учун **“Сольфеджио”** ўқув қўлланмалари, **“Ёш композитор тарбиясида муסיқий-тарихий фанларнинг ўрни”,** **“Композиторлик ижодиётида эстрада қўшиғи яратилишининг амалий масалалари”** каби мақолалар муаллифидир. О.Абдуллаева ижодий, ўқитувчилик, маърифий-жамоатчилик фаолияти билан республикамиз муסיқий ривожига баракали ҳисса қўшиб келмоқда.

Мамлакатимизда сўнги йилларда мусиқа таълимини такомиллаштиришга доир қатор дарслик, қўлланма ва монографиялар яратилди, илмий-тадқиқот ишлари, диссертациялар ҳимоя қилинди, кўплаб илмий мақолалар чоп этилди. Бу тадқиқот ишларида мусиқа дарсини янги талаблар асосида, замонавий таълим технологиялари воситасида ташкил этиш бўйича ижобий материаллар, ишланмалар ва хулосаларга эришилди. Буларнинг барчаси мусиқа таълими самарадорлигини оширишга, ёшларнинг бадиий-эстетик дидини юксалтиришга хизмат қилмоқда.

ХУЛОСА

Мусиқа таълимининг мавжуд муаммоларини ечишда замонавий ёндашувлар, янги технологиялар ва ишланмаларни қўллаш, улар ечимининг оптимал йўлларини таклиф этиш борасида кўпгина ишлар амалга оширилмоқда. Жумладан, замонавий мусиқа таълимини амалга оширишда унинг самарадорлигини ошириш, янги талаблар даражасидаги ўқитиш методларини яратиш ва дарсларда ундан изчил фойдаланиш бўйича мамлакатимизда маълум ютуқларга эришилди.

Ўқувчи-талабаларнинг мусиқий талаб ва эҳтиёжлари, тингловчилик диди ҳамда маданияти ўсиб бориши мусиқа бозорида шаклланаётган турли тенденцияларни таҳлил этиш, уларнинг истиқболли йўналишлари борасида дадил прогнозлар бериш, шунингдек, ўқувчи-талабаларнинг мусиқий қобилиятлари, тингловчилик дидини диагностика қилиш орқали таълим самарадорлигини ошириш борасида янги методикаларни ишлаб чиқиш зарурати мавжуд.

Юқорида келтирилган омилларнинг барчаси мусиқа ўқитувчисининг тадқиқотчилик фаолияти билан шуғулланиши нақадар муҳимлигини кўрсатади.

<p>Ziyodullayeva Durdona Tojiddin qizi <i>Buxoro davlat universiteti xorijiy tillar fakulteti 3-bosqich talabasi</i></p> <p style="text-align: center;">YANGILANAYOTGAN O'ZBEKISTONDA FAN VA TA'LIMNI RIVOJLANTIRISHDA INNOVATSIYALARNI TUTGAN O'RNI.</p>	<p><i>Elektron pochta manzili:</i></p>
---	--

Annontatsiya: *Ushbu maqolada O'zbekistonda fan va ta'lim rivojlanishida innovatsion texnologiyalarni o'rni va muhim ahamiyatlari to'g'risida fikr yuritilgan.*

Kalit so'zlar:

O'zbekiston, fan, ta'lim, innovatsiya, rivojlanish, tarbiya.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Karimov I. A. O'zbekiston: milliyistiqloq, iqtisod, siyosat, mafkura.
2. G'. Yo'ldoshev Ta'lim yangilanish yo'lida.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7- fevraldagi farmoni bilan tasdiqlangan 2017-2021-yillarda O'zbekistonni rivojlantirishning 5ta ustuvor yo'nalish bo'yicha Harakatlar strategiyasi.
4. WWW.ziyonet.uz.

Mamlakat taraqqiyotining zamini hech shubhasiz ilm-fan va innovatsiyalardir.

Sh.M.Mirziyoyev.

Bugungi zamonaviy hayotimizni ilg'or texnologiya vositalarisiz tasavvur qilish imkonsiz. Har birimiz hayotimiz davomida o'z ish faoliyatimiz jarayonida zamonaviy texnologiyavosiyalaridan foydalanmiz. Va bu bilan ko'zlagan maqsad va rejalarimizga erishishimiz uchun zamin yaratamiz. Rivojlanish bo'sag'asida turgan va yangilanish jarayonini boshdan o'tkazayotgan O'zbekistonda barcha sohalarda keng qamrov islohotlar qilib kelinayotganligi barchamizga sir emas.

Ayniqsa, fan va ta'limni rivojlantirish borasida qilinayotgan ishlar, islohotlar va innovatsiyalar mamalakatimiz taraqqiyotida, O'zbekistonning buyuk davlatga aylanishida ta'lim-tarbiya ishlarini oqilona yo'lga qo'yishda, fuqarolarni zamonaviyilm-fan, madaniyat, texnika va texnologiya yutuqlari bilan muntazam ravishda tanishtirib borishda benihoya katta ro'l o'ynaydi. Avvalo, innovatsiya so'zining mohiyatini ochib beradigan bo'lsak, innovatsiya (inglizcha) yangilik, yangilik kiritish degan ma'nolarni fodalaydi.

Ma'lumki, ta'lim har bir jamiyatning ajralmas qismi, madaniyat va rivojlantirishning asosiy ko'rsatkichidir. Har qanday mamlakat istiqbol darajalar tuzarekan, avvalo ta'limga e'tiborni kuchaytiradi. Shu ma'noda mustaqilligimizning ilk kunlaridan boshlab ta'limni isloh qilishga kirishildi.

Jahonning taraqqiy etgan davlatlar tajribasi har qanday iqtisodiy tanglikni, avvalo, ilm-fan yutuqlari va innovatsiyalarni keng qo'llash orqali bartaraf qilish hamda rivojlanishga erishishni ko'rsatmoqda. Ilm-fan va innovatsiyalar har bir davlatning bugungi kuni va kelajagini belgilaydigan muhim omilga aylanganligi bejiz emas.

O'zbekistonni rivojlangan davlatlar qatoriga olib chiqishdek yuksak maqsad yo'lida keng qamrovli islohotlar amalga oshirilmoqda. Fan va ta'limni rivojlantirish ta'lim sifatini yaxshilash borasida Prezidentimiz tomonidan qabul qilinayotgan qonun va qarorlar bu sohada qilinayotgan islohotlar namunasidir. Buning isboti sifatida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi farmoni bilan tasdiqlangan 2017-2021- yillarda O'zbekistonni rivojlantirishning 5ta ustuvor yo'nalish bo'yicha Harakatlar strategiyasida ta'lim va fan sohasini rivojlantirish, uzluksiz ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, sifatli ta'lim xizmatlari imkoniyatlarini oshirish, ilmiy tadqiqot va innovatsiya faoliyatini rag'batlantirish ilmiy va innovatsiya yutuqlarini amaliyotga joriy etishning masalalariga alohida to'xtalib o'tgan.

Fan va ta'lim sohasida qilinayotgan islohotlar, kiritilayotgan yangiliklar ta'lim sifatini yaxshilashda katta ahamiyatga ega. Innovatsion texnologiyalar pedagogic jarayonlar hamda o'qituvchi va o'quvchi faoliyatiga yangilik, o'zgartirish kiritish demakdir. Bugungi kunda axborot ko'lami juda kengayib bormoqda. Agar o'qituvchi o'z ustida ishlamas, avvalgi o'rgangan bilimlari yetarli bo'lmay qoladi. Dars mavzulari kundalik hayotdagi keskin voqealar bilan bog'lab o'tilsa, turli innovatsion texnologiyalardan foydalanilsa, darsning yaxshi esda qolishiga erishilishi mumkin.

Zamonaviy texnologiya vositalari bo'yicha bilim, ko'nikma, malakaga egabo'lish va bu bo'yicha xorijiy tajribalardan xabardor bo'lish, ta'lim jarayonini tashkil etishda didaktik o'yinlardan, interfaol usullardan foydalanish mahorati, dars jarayonida harakatli o'yinlardan unumli foydalana bilish va turli texnik vositalardan ham (kompyuter, proyektor, elektron doska va boshqa foydalanish ta'lim sohasida amalga oshirilayotgan innovatsiyalarning kichik bir ko'rinishi, namunasi bo'la oladi. O'qituvchining faoliyatida innovatsiyalar qanchalik ko'p bo'lsa, mazmun shunchalik oshadi.

Demak, mamlakatimizning taraqqiy etgan mamlakatlar qatoridan o'rin olishi uchun aholi ta'limini jadallashtirish va uning samaradorligini oshirish maqsadi ham ilg'or pedagogic tadbirlardan, texnologiyalardan keng foydalanishimizni talab etmoqda. Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov ta'biri bilan aytganda, "Biz rivojlangan bozor iqtisodiyotiga asoslangan zamonaviy davlat qurish yo'liga qadam qo'yib kuchli davlatdan kuchli fuqarolik jamiyati sari izchillik bilan o'tishni ta'minlar ekanmiz, faqat milliy va umumbashariy qadriyatlar uyg'unligi zaruriyatini terananglaydigan, zamonaviy bilimlarni, intellektual salohiyat va ilg'or texnologiyalarni egallagan insonlarga o'zoldimizga qo'ygan strategik taraqqiyot maqsadlariga erishishi mumkin ekanini hamisha o'zimizga yaxshi tasavvur etib kelmoqdamiz.

Prezident I. A Karimovning "Yuksak bilimli va intellektual rivojlangan avlodni tarbiyalash – mamlakatni barqaror taraqqiy ettirish va modernizatsiya qilishning eng muhim sharti" mavzusidagi Xalqaro konferensiyada so'zlagan nutqidan. Toshkent, 2012 – yil, 17- fevral.

<p>Davidova Iqbolxon Yusufjonovna <i>Farg'ona viloyati Marg'ilon shahar 1- umumiy o'rta ta'lim maktabi direktori</i></p> <p style="text-align: center;">YANGI O'ZBEKISTONDA YANGI TA'LIM</p>	<p>Elektron pochta manzili:</p>
--	--

Annontatsiya: *Ushbu maqolada O'zbekiston mustaqil bo'lgandan so'ng amalga oshirilgan islohotlar, o'quvchi yoshlarga yaratib berilayotgan imkoniyatlar haqida fikr yuritilgan.*

Kalit so'zlar:

O'zbekiston, yurt, kelajak, yosh avlod, mustaqillik, vatan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

- 1.fayllar.org
2. abt.uz
3. m.kun.uz
4. /xsz/uz/
- 5www.archive.uz.

Bugungi kunga kelib mamlakatimiz o'z mustaqil taraqqiyot yo'lining o'ttiz yilligini nishonlash arafasida turibdi.

Tarix oldida bu muddat kiprik qoqqanchilik lahzalarga teng davr hisoblanadi. O'tgan yillar mobaynida yurtimiz tarixida o'ta mas'uliyatli va sharaflil davrni tashkil etdi. Shu davr mobaynida har birimizning hayotimizda, mamlakat taqdirida muhim va keskin o'zgarishlar yuz berdi, turmush tarzimiz o'zgarib, o'zligimizni anglay boshladik.

Qisqa davr ichida davlat va jamiyat qurilishida, huquqiy-siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy sohalarda, eng muhimi odamlarimizning ongu-shuurida tom ma'noda yangicha qarash va yangicha fikrlash tuyg'usi shakllanib ulgurdi.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar jarayonida avval-boshdan ana shu nozik jihatga alohida e'tibor qaratildi. Barcha o'zgarishlar va yangilanishlarning markaziga inson va uning manfaatlari qo'yildi. Bugungi kunda ham o'zgarishlar jarayonining mohiyatida islohot uchun emas, avvalo inson uchun, uning farovon hayoti uchun, degan tamoyil mujassamdir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 15 iyul kuni uzluksiz professional ta'lim tizimini yanada takomillashtirish masalalari bo'yicha yig'ilish o'tkazdi. Bugungi kunda barcha soha va tarmoqlarda ulkan ishlar amalga oshirilmoqda. Hududlarda yangi korxonalar ishga tushirilib, ijtimoiy infratuzilma rivojlantirilmoqda. Oldinda yana katta reja va maqsadlar bor.

Bularning barchasi malakali mutaxassislarga bo'lgan talabni oshirmoqda. Chunki har bir sohaning rivoji, loyihalarning ijrosi yetuk kadrlarga bog'liq.

Shu bois keyingi yillarda ta'lim tizimi modernizatsiya qilinib, o'qitishning zamonaviy shakl va texnologiyalari joriy etilmoqda. Hududlarda yangi, shu jumladan, xorijiy ta'lim muassasalari tashkil etilib, talab yuqori bo'lgan mutaxassislar tayyorlashga sharoit yaratilmoqda. Kollejlar negizida professional ta'lim muassasalarining yangi tarmog'ini shakllantirish vazifasi qo'yildi. Ushbu muassasalarda boshlang'ich, o'rta va o'rta maxsus professional ta'lim dasturlari asosida kadrlar tayyorlanadi. O'qitish muddatlari zarur bilim, malaka va ko'nikmalarning murakkabligiga qarab turlicha bo'ladi.

Yig'ilishda ushbu tizimni joriy qilishdan oldin uning metodologiyasini yaratish, ta'lim dasturlarini xalqaro talablar asosida yangidan ishlab chiqib, o'qituvchi va ishlab chiqarish ustalarini tayyorlash, qayta tayyorlash hamda malakasini oshirish zarurligi ta'kidlandi. Yoshlarni kasb-hunarga qiziqtirish va rag'batlantirish bo'yicha taklif kiritish topshirildi. Davlatimiz rahbari yangi professional ta'lim tizimini mehnat bozori talablari bilan uyg'unlashtirish masalasiga alohida to'xtaldi.

Joylarda ishsizlik kuzatilayotgan bir paytda ishchi kasblar bo'yicha mutaxassislarga katta ehtiyoj borligi qayd etildi. Masalan, yengil sanoatda 46 ming, qurilishda 104 ming, metallga ishlov berish bo'yicha 71 ming, xizmat ko'rsatish sohasida 67 ming nafar mutaxassis yetishmayapti. Bu ta'lim va ishlab chiqarish o'rtasida uyg'unlik yo'qligi oqibatidir. Shu bois bitiruvchining ishga joylashishi yoki o'z biznesini yo'lga qo'yishi ta'lim muassasalari faoliyatining asosiy mezon bo'lishi kerakligi qayd etildi. Prezident yangi professional ta'lim tizimi bo'yicha taklif etilgan chora-tadbirlarni yanada takomillashtirish yuzasidan ko'rsatmalar berdi.

Davlatimiz rahbari avvalo maktablarda o'quv yuklamasi va darslar sonini qayta ko'rib chiqish, o'quvchilarni faqat yodlashga emas, balki fikrlashga chorlaydigan metodika yaratish zarurligini ta'kidladi.

Bu borada Finlyandiya tajribasi misol qilib keltirildi. Ushbu mamlakat umumiy savodxonlik, tabiiy fanlar va matematika bo'yicha dunyoda eng ilg'orlardan biri. Maktabda o'qitish metodikasi o'zgarmasa, ta'lim sifati ham, mazmuni ham, muhit ham o'zgarmaydi, – dedi Shavkat Mirziyoyev.

Mamlakatimizda barkamol avlodni shakllantirish, yoshlarni ma'naviy-axloqiy va jismonan sog'lom etib tarbiyalash, ularni olib borilayotgan islohotlarning faol ishtirokchisiga aylantirishga qaratilgan chora-tadbirlar izchil amalga oshirilmoqda.

Jumladan, maktabgacha ta'limning zamonaviy tizimi, 11 yillik umumiy o'rta ta'lim joriy qilinmoqda, zamonaviy oliy ta'lim muassasalari hamda nufuzli xorijiy universitetlarning filiallari tashkil etilmoqda.

Yoshlarning bandligini ta'minlash va ularni tadbirkorlik faoliyatiga keng jalb qilish bo'yicha ishlarni mutlaqo yangi tizim asosida tashkil etish va amalga oshirish maqsadida "Yoshlar – kelajagimiz" Davlat dasturi qabul qilindi.

Yoshlar bilan doimiy muloqot qilish mazkur sohadagi dolzarb muammolarni aniqlash va hal etishda davlat organlari va jamoat tashkilotlari faoliyatining ajralmas qismiga aylanib bormoqda.

Darhaqiqat, O'zbekiston murakkab sharoitda mamlakatda qaror topgan barqarorlik va osoyishtalikni ko'z qorachig'idek asrab-avaylab, yuqori iqtisodiy o'sish sur'atlariga erishayapti, ijtimoiy soha rivojlanmoqda, ta'lim va tibbiyotni ravnaq toptirish hamda qishloqni yanada obod qilishga katta miqdorda investitsiya yo'naltirmoqda. Bu natijalar, ta'bir joiz bo'lsa, osmondan tushgan emas. Har bir muvaffaqiyat, har bir marra zamirida mamlakatimiz rahbari atrofida bir tanu bir jon bo'lib jipslashgan, islohotlarni ro'yobga chiqarish yo'lida yuksak mas'uliyat hissi bilan yashayotgan xalqimizning zahmatli mehnati mujassam.

Bugungi zamonaviy jamiyatda inson faoliyatining eng keng sohalaridan biri - bu ta'lim hisoblanadi. Oxirgi yillarda ta'limning ijtimoiy roli ortib, dunyoning aksariyat davlatlarida ta'limning barcha turlariga bo'lgan munosabat o'zgardi. Ta'lim ijtimoiy va iqtisodiy taraqqiyotning bosh, yetakchi omili sifatida qaralmoqda. Bunday e'tiborning sababi zamonaviy jamiyatning eng muhim qadriyati va asosiy kapitali - bu yangi bilimlarni izlash, egallash va nostandart qarorlar qabul qilishga qodir bo'lgan inson hisoblanadi. Shunday ekan, hozirgi davrda ta'lim shaxs va jamiyatni rivojlantirishda hal qiluvchi rol o'ynaydi.

Jahon iqtisodiyotida globallashtirish va keskin raqobatchilik kuchayib borayotgan sharoitda insonning oldingi davrdagi butun hayot uchun ta'lim olish emas, balki butun hayoti davomida uzluksiz ta'lim olish zaruratini keltirib chiqarmoqda.

Ba'zi bir manbalarga ko'ra, ta'limning uzluksizligi to'g'risidagi ilk g'oyalarni ba'zi bir G'arb tadqiqotchilari hatto Suqrot, Aflotun, Aristotel va Senekanning insonning doimiy ravishda ma'naviy takomillashuvi haqidagi diniy-falsafiy tasavvurlarida va ilmiy asarlaridan hamda bunga o'xshash g'oyalarni muqaddas islom dinimizda ham uchratishimiz mumkin. Yurt kelajagini qurishda innovatsion ta'lim metodlari va insonlarning vatanparvarlik xissi namoyon bo'ladi. Eng yaxshi investitsiya bilimga tikilgan investitsiyadir. Har bir inson yurt ravnaqi va uni rivojlantirish yo'lida harakat qilsa bunday davlatda buyuk natijalar sodir bo'ladi.

<p>Tojialiyeva Madinaxon Ulug'bek qizi <i>Termiz davlat universitetining pedagogika instituti 2-kurs talabasi</i></p> <p>BOLA TARBIYASIDA MILLIY MEROSIMIZNING TUTGAN O'RNI</p>	<p><i>Elektron pochta manzili:</i> Tel: +99899 647 07 72 tojialiyevamadinaxon@gmail.com</p>
---	---

Annotatsiya: *Ushbu maqolada o'zbek xalqining boy merosi, milliy qadriyatlarimizning bola tarbiyasiga ta'siri, boy merosimizdan qanday foydalanishimiz haqida so'z yuritiladi. Milliy mafkuramizni shakllantirishda ajdodlarimiz merosidan foydalanishimiz kerak ekanligi ta'kidlanadi. Sharq xalqining boy merosini o'rganish qanchalik foyda berishi ko'rsatilgan. Ajdodlarimizning ma'naviy merosi, ularning qanchalik muhim ekanligi yoritiladi.*

Kalit so'zlar:

Mafkura, ajdodlar, sharq, tafakkur, tarbiya, meros, ilmiylik, avesto.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Karimov I.A. "Ijobiy ishlarimizni oxiriga yetkazaylik" .-T.: O'zbekiston. 1994
2. Uvatov U. "Donolardan saboqlar" .T.:Meros. 1994
3. Vohidova G. "Barkamol avlodni axloqiy tarbiyalashda Al-Farobiy ta'limotining o'rni" Buhoro. 2011.(kurs ishi)
4. www.google.uz
5. www.ziynet.uz

O'zbek xalqi o'z oldidagi ezgu va ulug' maqsadlarini amalga oshirish uchun qadimdan juda ko'p qiyinchiliklarni yengib o'tgan. Mustaqillikka erishganimizdan keyin ijtimoiy va siyosiy o'zgarishlar bilan birga milliy qadriyatlar, qadimiy an'analarimizni o'rganish, ularni tiklash uchun qator islohatlar amalga oshirildi. Xalqimiz tarixiy merosini qayta tiklash va ularni yosh avlodga yetkazish chora tadbirlari amaliyotga tadbiiq etilmoqda. Milliy merosimizni tiklash uchun malakali mutaxassislar kerak. Bu kabi kadrlarni tarbiyalash davlatimiz oldida turgan muhim vazifalardan biri hisoblanadi.

Ajdodlarimizning tarixiy merosi barkamol avlodni shakllantirishda muhim manba bo'lib xizmat qiladi. Birinchi prezidentimiz I.A. Karimov tarixiy merosimiz haqida shunday degan:

"Necha yillar bizni tariximizdan, dinimizdan, ma'naviy merosimizdan g'ofil etishga urundilar. Ammo biz xurriyatni orzu etishdan, xurriyat uchun kurashishdan charchamadik.

Maslagimizni, nasl-nasabimizni doimo yodda saqladik. Ulug' bobolarimiz ruhiga ular qoldirgan ulkan merosga munosib bo'lish istagi jamiyatimiz orasida keng yoyish har bir fuqoroning ongidan mustahkam joy olishi – bu ham yangi zamonning muhim xususiyatidir”

Sharq xalqlarining ming yillik odob-axloq qoidalari, qadriyatlari ajdodlarimiz ilmiy merosida o'z ifodasini topgan. Sharq mutafakkirlarining asarlarida ta'lim-tarbiya masalari haqida ajoyib ma'lumotlar keltirilgan. Barkamol avlodni tarbiyalash haqida tariximizdan ko'p misollar keltirish mumkin. Al Farobiyning “Fozil odanlar shahri” Jomiyning “Bahoriston” Navoiyning “Mahbub ul-qulub” asarlarida sog'lom va komil insonni tarbiyalash yo'llari, usullari yozilgan. Bundan tashqari xalqimizning eng qadimgi ilmiy merosi “Avesto” da ham odob-ahloq tarbiya haqida fikrlar keltirilgan.

Bugungi taxlikali zamonda yoshlarimizning ruhiyatini sog'lom qilishda milliy meros namunalari juda kerak bo'ladi.

Yoshlar ongiga milliy –ma'naviy qadriyatlarimizni singdirish uchun yetarlicha boy merosga egamiz. Biz yoshlar bu kabi fikrlarni jamlab ularni chuqur o'rganmog'imiz kerak. Chunki, yoshlarning barkamol tarbiyasida bobolarimizning ijtimoiy ta'limoti, ularning falsafiy qarashlari muhim o'rin egallamog'i zarurdir.

Ajdodlarimiz qarashlarida tarbiya tizimida o'ziga xos umumiylik bo'lib, ona vatanga muhabbat, adolat, jasurlik kabi sifatlar ulug'langan. Bu esa o'sib kelayotgan yosh avlodni to'g'ri tarbiya qilishda yordam beradi.

Yosh avlod tarbiyasi har bir davlatning taqdirini hal qiladi. Har bir xalqning o'ziga hos ta'limiy va tarbiyaviy tizimi bo'ladi. Kelajak avlodni tarbiyalashda buyuk bobolarimiz kitoblaridan foydalansak, milliy dunyo qarashimizni kengaytirgan bo'lar edik.

Ачилова Мадина Шерзод қизи

*Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети
2-босқич (бакалавр) талабаси*

**СЛОВООБРАЗОВАТЕЛЬНЫЕ И ГРАММАТИЧЕСКИЕ
ТРУДНОСТИ ПРИ ПЕРЕВОДЕ ИСПАНСКОГО ТЕКСТА НА
РУССКИЙ**

Elektron pochta manzili:

+998975990616

Toshpo'latovaMadina@mail.uz

Аннотация: *На этой статье говорится о том, что в испанском языке многие словообразовательные типы очень продуктивны, и в текстах ораторских речей довольно часто встречаются слова, созданные самим оратором и отсутствующие в словаре. Эти слова можно перевести, только разложив их на морфемы (обычно на корень и суффикс или на два корня). А морфология испанского языка обычно не вызывает никаких трудностей в понимании и переводе текстов. Больше трудностей создает синтаксис. Для их преодоления требуется безукоризненное владение всеми синтаксическими конструкциями испанского литературного языка, в том числе редкими и устаревшими.*

Ключевые слова:

Глагол, конструкции, синтаксис, морфология, оратор, литературный язык, уникальность, морфология.

ЛИТЕРАТУРА:

1. Г.Я.Туровер "Пособие по устному переводу с испанского языка для институтов и факультетов иностранных языков" Москва, 1980 г (260 стр)
2. В.В.Виноградов "Система и уровни языка" Москва 1969 г
3. М.А.Баранов "Мастерство перевода" Москва 1974 г.
4. Б.А.Серебренников "Общее языкознание", "Внутренняя структура языка" Москва., 1972г
5. В.М.Жирмунски "О синхронии и диахронии в языкознании". Москва-1958г.
6. <http://es.altavista.com>
7. <http://www.sobre.espana.ru>

Словообразовательные трудности:

В испанском языке многие словообразовательные типы очень продуктивны, и в текстах ораторских речей довольно часто встречаются слова, созданные самим оратором и отсутствующие в словаре. Эти слова можно перевести, только разложив их на морфемы (обычно на корень и суффикс или на два корня). Общеизвестный пример слова на -dor, которые обычно переводятся действительными причастиями или даже глаголами: la fuerza de que la Gran Potencia es poseedora -Сила, которой великая держава обладает.

Несколько менее известна роль суффиксов *-ero* и *-ista*. В политической и научной речи они применяются часто в значении русских суффиксов *-н-* и *-ов-* в прилагательных, а еще чаще полученные с их помощью прилагательные переводятся существительным в родительном падеже или целыми описательными оборотами: *Congreso Azucarero* может означать «совещание представителей сахарных компаний» или «профсоюзная конференция рабочих сахарных заводов», или иной съезд (конференцию), имеющий какое-то отношение к сахару. *Estudios indigenistas* «исследования культуры и языков индейцев», *equilibrio armamentista* переводится «равновесие вооружений», а *carrera armamentista* – «гонка вооружений».

При глагольных корнях латинского происхождения (*voces cultas*) весьма распространены суффиксы *-ivo* и *-tario*, часто переводимые на русский язык отглагольным существительным в родительном падеже или с предлогами, инфинитивом или описательными оборотами разного рода: *medios compulsivos* «средства принуждения», *afán igualitario* «стремление к равенству», *el esfuerzo constitutivo de nuevas naciones* «усилия, увенчавшиеся созданием новых государств», *el título representativo* «право быть представителем», «право участвовать в работе» (представительного учреждения) и т.д.

Новые слова постоянно создаются в речи не только с помощью самых продуктивных суффиксов (*-idad*, *-ción*, *-ismo*, *-ez*, *-eza*, *-és*, *-ense*, *-ano*, *-eno*, *-able* и т.п.), но и посредством более редких суффиксов: словосочетание *1a requeñez y finitud del hombre* может быть понято при членении слова *finitud* на основу прилагательного *finito* 'конечный, смертный' и суффикс абстрактных существительных *-ud*, откуда значение этих слов - ничтожность и смертность человека. (1.стр.25)

Грамматические трудности:

Морфология испанского языка обычно не вызывает никаких трудностей в понимании и переводе текстов. Больше трудностей создает синтаксис. Для их преодоления требуется безукоризненное владение всеми синтаксическими конструкциями испанского литературного языка, в том числе редкими и устаревшими (примем во внимание, что использование архаичных синтаксических конструкций подчас может служить таким же украшением стиля, каким служат изысканные синонимы или необычные сравнения). Типичные ошибки связаны с незнанием таких, например, конструкций, как *dado* (*dada*, *dados*, *dadas*) -существительное:

Dada la elección del Presidente de la Asamblea el número de puestos debe reducirse ... «В связи с избранием председателя Генеральной ассамблеи число мест снижается до ...»

Следует помнить, например, что *por* с инфинитивом означает причину: *por ser débil* «благодаря своей слабости», «из-за своей слабости».

Неопытные переводчики часто допускают ошибку в переводе, забывая, что в испанском языке отрицание по обыкновению относится к глаголу или, точнее, ко всему предложению (тогда как по-русски отрицание не может относиться к любому члену предложения). Во фразе *No por eso dejamos de sentir ...* отрицание по отношению ко всему предложению (то есть предложение с отрицанием равнозначно предложению *No es verdad que por eso dejemos de sentir...*), а следовательно, понимать его следует так: «От этого мы не перестанем ощущать...» (то есть «Мы, тем не менее, ощущаем...»). При незнании же этой синтаксической особенности испанского языка мог бы получиться неправильный перевод: «Не от этого мы перестаем ощущать...».

Специфические синтаксические трудности синхронного перевода связаны с отмеченной выше невозможностью обратной корректировки.

Эта невозможность сказывается прежде всего там, где испанский порядок слов отличен от русского.

В испанском языке порядок слов в целом довольно близок к русскому. Отличия касаются лишь нескольких пунктов, и именно здесь возникают трудности для синхронного переводчика. Вот каковы важнейшие из этих отличий: (1, стр.26)

а) Прилагательные в отличие от русского языка, располагаются чаще всего после определяемого им существительного; после существительного расположены и подчиненные ему конструкции с предлогом (*de* и *pr.*), которые переводятся на русский язык прилагательными: *Congreso de París*- Парижский конгресс. Чтобы облегчить свою задачу, переводчик должен переводить текст не слово за словом, а синтагма за синтагмой. В этом случае прилагательные и приименные предложные конструкции оказываются в одной синтагме с существительным, и следовательно, мы переводим всю группу имени существительного, услышав ее целиком.

б) Испанские предложения нередко начинаются с глаголасказуемого, за которым следует дополнение, подлежащее или обстоятельство места:

La llegada a esta capital el President de la Republica Argentina. Correspondido a un discipulo suyo....agradecer....

Ha correspondido a las Naciones Unidas Ante este acto de ecuménica justicia, se regocija mi delegación al extenderle sus más calurosos parabienes. Ha correspondido a las Naciones Unidas transformar la consideración.

В (следует название города) прибыл президент Аргентины. Мне, его ученику..., выпала честь поблагодарить...

На долю Организации Объединенных Наций выпала задача ...

Моя делегация рада передать вам свои самые горячие поздравления по поводу этого акта международной справедливости.

Такой порядок слов характерен для фраз, в которых новая информация содержится в подлежащем или ином члене предложения, располагающемся в конце предложения. Фраза *El Presidente de la República llega a Bogotá* уместна в тексте, где уже прежде шла речь о президенте, и новая информация фразы в том, куда приехал президент. Фраза же *Llega a Bogotá el Presidente de la República* используется тогда, когда логический акцент падает на подлежащее.

В русском языке такому испанскому порядку слов соответствует (как это видно, в частности, и из приводимых здесь примеров) иное расположение слов: в начале предложения располагается дополнение, подлежащее или обстоятельство места, а за ним следует сказуемое. Поэтому, услышав в начале предложения сказуемое, переводчик не должен переводить его тут же, а должен услышать следующий за ним член предложения, и передать все предложение с естественным для русского языка порядком слов.

Трудность эта усугубляется другим обстоятельством: в испанском языке очень часто предложение начинается со сказуемого в 3-м лице и не имеет выраженного словами подлежащего: по смыслу оно часто соответствует русскому предложению с подлежащим «он», «она», «оно», «они»: *La sensación de un país como el nuestro que concurre a este recinto, no puede ser más curiosa. Os la voy a explicar con absoluta sinceridad. Se sabe en presencia de un mundo cada día más vasto y con problemas cada vez más serios. Sin embargo, comprende que se halla también en presencia de algo que desea vivir a todo trance. Здесь comprende переводится 'она (моя страна) понимает'. Поэтому, услышав в начале предложения сказуемое, мы не сразу можем понять, будет ли подлежащее где-то дальше в предложении или оно здесь формально не выражено (и тогда переводится личным местоимением 3-го лица). Чтобы избежать ошибок при переводе следует, услышав начальное сказуемое, ждать, пока будет произнесен следующий член предложения или даже несколько членов предложения и синтаксическая ситуация прояснится.*

Приведем пример: Han recaído este año dos designaciones de la más alta importancia en representantes de América Latina. Синтаксическая структура фразы становится ясной только тогда, когда переводчик услышит слова dos designaciones.

в) Некоторые трудности связаны с переводом предложений, содержащих выделительную конструкцию Es ... lo que ... (Es ... el que ..., es ... la que) — в русском языке ей соответствует постановка выделенного члена предложения в конец фразы:

Для решения этой проблемы нужна не помощь, а справедливость.

No es ayuda lo que se quiere para solucionar el problema, es equidad.

Поэтому, услышав в начале предложения es, переводчик часто оказывается перед синтаксической неясностью, поскольку возникает выбор из трех возможностей: фраза с выделительной конструкцией es... lo (el, la, los)que..., фраза с подлежащим, которое будет где-то далее в предложении, или фраза без выраженного подлежащего (тогда надо вставлять «он» и т.п.). No es motivo de tranquilidad social el que nuestros pueblos estén imposibilitados de disfrutar de los bienes que la civilización ha creado para su beneficio y comodidad. Здесь синтаксическая структура становится ясной только тогда, когда переводчик услышит слова el que. Догадаться об этой синтаксической структуре можно и ранее (по отсутствию артикля у слова motivo, показывающему, что motivo здесь не подлежащее, а именной член сказуемого), но такая догадка недостаточно надежна, чтобы на нее можно было опереться без риска испортить всю фразу.

г) Нередко бывает и так, что порядок слов испанского предложения мало отличается от русского, и тем не менее, начальные слова предложения не позволяют еще понять его синтаксической структуры, и для того, чтобы начать перевод, приходится ждать окончания первой синтагмы или даже последующей.

Так происходит, в частности, тогда, когда фраза начинается с конструкции al+инфинитив: Al elegirle en forma unánime se ha honrado, particularmente, a uno de los grandes obreros de las Naciones Unidas. Только услышав подлежащее и сказуемое, можно понять, следует ли здесь применить в переводе деепричастие (при совпадении субъектов инфинитива и глагола-сказуемого) или придаточное предложение, а если придаточное, то какое: временное, причинное или условное.

Такая же трудность возникает подчас, если испанская фраза начинается с имени существительного (или именной группы) без артикля — это ведь может быть не только подлежащее предложения, но и приложение (которое по русски переводится конструкцией «будучи ... творит. падеж»): *Firmes partidarios del método de las negociaciones para resolver los conflictos internacionales, deseamos dejar constancia ...* Впрочем, в данном случае можно рискнуть и приступить к переводу с самого начала (переводя испанское существительное русским существительным в именительном падеже), ибо приложение по русски может быть передано (иногда со стилистическими натяжками) и именительным падежом: «Убежденные сторонники метода переговоров при решении международных конфликтов, мы хотим...». (1,стр.29)

Итак, мы можем сказать, что необходимость не пословного, а по синтагменного перевода (а иногда и перевода с еще большим запозданием) которой диктуется и другим, еще более существенным обстоятельством: слова, находящиеся в пределах одной синтагмы, семантически влияют друг на друга, и поэтому перевод отдельного слова до окончания синтагмы может оказаться лексически неправильным. В силу этого к по синтагменному переводу приходится прибегать и в тех случаях, когда этого не требуют со собственно синтаксические причины.

<p>Abduraimova Dinora Bahodir qizi <i>Termiz Davlat Universiteti xorijiy filologiya fakulteti</i> <i>104-guruh 1-bosqich talabasi</i></p> <p style="text-align: center;">BOLALARGA INGLIZ TILINI O'QITISH METODIKASI</p>	<p>Elektron pochta manzili: +998912311802 abduraimovadinora@gmail.com</p>
--	--

Annotatsiya: *Ushbu maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarni inglizcha so'z boyligini o'zlashtirish, birlashtirish va faollashtirish metodikasi haqidagi qarashlar va fikr mulohazalar keltirilgan.*

Kalit so'zlar:

Metodika, chet tili, inglizcha so'zlar, krossvordlar, ritmik musiqa o'yinlari, badiiy yoki ijodiy o'yinlar, axborot-kommunikatsiya usullari, audio ertaklar, videofilmlar, multifilmlar.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Astafieva M.D. Ingliz tilini o'rganayotgan bolalar uchun ta'til. - M.: Mozaika-sintez, 2009 y.
2. Galskova N.D. Nikitenko Z.N. Chet tillarni o'qitish nazariyasi va amaliyoti. boshlang'ich maktab: uslubiy
3. qo'llanma. - M.: Airis-press, 2004.
4. Guseva L.R Biz o'ynaymiz, o'qitamiz, o'zlashtiramiz - biz ingliz tilini bilishni xohlaymiz. - Rostov n / a: Feniks, 2009 y-
5. Zemchenkova T.V. Maktabgacha yoshdagi bolalar uchun ingliz tili. - M.: VAKO, 2008 yil.

Darhaqiqat so'nggi yillar ichida chet tilini o'rganish, shunchaki o'z-o'zini rivojlantirish emas, balki zarurat bo'lib, ya'ni zamon talabiga aylanib bormoqda. Chet tili nafaqat maktablar va universitetlarda, balki ko'plab qo'shimcha maktabgacha ta'lim muassasalarida ham ta'limning majburiy tarkibiy qismiga aylandi.

Jamiyatimizda ham chet tiliga bo'lgan talab kundan-kunga oshib bormoqda. Buni isboti tariqasida aynan bolalarning chet tilini o'rganishga bo'lgan ishtiyoqi hamda ularning ota-onalarining ham o'z farzandlarini har xil chet tillaridan fan to'garaklari bilan o'z farzandlarini bo'sh vaqtlaridan unumli foydalanishi uchun yaratib berayotgan shar-sharoitlaridan ham tushunib olsak bo'las. Endi ota-onalar chet tilini o'rganishni iloji boricha erta boshlashga intilmoqda.

Agar 20 yil oldin tilni bilish faqat ba'zi sohalar ishlarida talab qilinadigan bo'lsa, endi kamida bittasini o'zlashtirish kerak. Chunki xorijiy til har bir sohada, har bir ishda o'z mavqeyi hamda o'z o'riniga ega.

Maktabgacha yoshdagi bolalarni chet tiliga o'rgatishning asosiy maqsadlari:

- bolalarda chet tilida boshlang'ich muloqotni shakllantirish;

- chet tillarini yanada o'rganishga ijobiy munosabat yaratish;
- boshqa mamlakatlar hayoti va madaniyatiga qiziqish uyg'otish.

Maktabgacha bo'lgan bolalar juda ham qiziquvchan bo'ladi. Ular chet tilini o'rganishni boshlash uchun juda qulaydir. Chunki bu yoshdagi bolalar til hodisalariga nisbatan sezgirligi bilan ajralib turadi, ular o'zlarining nutq tajribalarini, tilning "sirlarini" tushunishga qiziqishadi.

Ingliz tilini o'rganish uchun videolar:Maqsad videofilm bu maktabgacha va yosh bolalar tomonidan ingliz tilini o'rganishdir kommunikativ usul o'rganish. Dastur materiallari bola uchun qiziqarli, ammo ayni paytda tarbiyaviydir. Bolalar atrofdagi dunyo haqidagi bilimlarga qo'shilib, o'ynab, ingliz tilini o'rganadilar.

Multfilmlar ingliz tilida - ingliz tilini o'qitishda eng yaxshi yordamchilardan biri. Bolalar multfilmlarni yaxshi ko'radilar va ularni ketma- ket tomosha qilishdan zavqlanadilar. Shuning uchun ingliz tilidagi multfilmlar bir vaqtning o'zida bolalarga chet tilini o'rgatishning ko'plab muammolarini hal qilishga yordam beradi:

- bolada "nima uchun bu so'zlarni o'rganish" degan savol yo'q;
- u multfilm tomosha qilishga qiziqadi va belgilar iboralarini takrorlashni yaxshi ko'radi;
- multfilmlar bolaga nafaqat yangi so'zlarni o'rganish va o'rganish, balki inglizcha nutq tovushlarini o'rganishda ham yordam beradi;

Chet tilni o'rganish uchun erta yosh afzalroq bo'lishining yana bir sababi bor. Bola qancha yosh bo'lsa, uning so'z boyligi ham kamroq bo'ladi, ammo shu bilan birga uning nutqiga bo'lgan ehtiyojlari ham kam, kichik bolada aloqa sohalari katta yoshdagilarga qaraganda kamroq, u hali murakkab aloqa muammolarini hal qilishi shart emas. Bu shuni anglatadiki, u chet tilini o'zlashtirganda, ona va chet tillaridagi imkoniyatlar orasidagi bunday katta farqni sezmaydi va uning muvaffaqiyat hissi kattaroq bolalarnikiga qaraganda yorqinroq bo'ladi.

Hammamiz yaxshi bilamizki, bolalarni o'qitish-bu maktab yoshidagi bolalar ya'ni maktab o'quvchilari va kattalarga qaraganda mutlaqo boshqacha uslubiy yondashuvni talab qiladigan juda qiyin masala. Agar bolalar uslubiy jihatdan nochor ya'ni sifati hamda natijasi past darslarga duch kelganda, har qaysi bolada ham uzoq vaqt davomida chet tilidan nafratlanishlari va o'zlariga bo'lgan ya'ni o'sha chet tilini o'rganishdagi qobiliyatlariga bo'lgan ishonchlarini yo'qotishlari mumkin. Albatta maktabgacha yoshdagi bolalar bilan faqat va faqat malakali hamda tajribali mutaxassislar shug'ullanishi zarur. Chunki maktabgacha yoshdagi bolalarga ingliz

tilini o'qitishda, bolalar asta-sekin kommunikativ kompetentsiya asoslarini rivojlantirish.

Metodika to'g'ridan-to'g'ri ta'lim tadbirlarini o'tkazish bolalarning til qobiliyatlari tuzilishining yoshi va individual xususiyatlarini hisobga olgan holda qurilishi va ularning rivojlanishiga yo'nalgan bo'lishi zarur. Bolada chet tiliga nisbatan ijobiy psixologik munosabatni yuzaga keltirish kerak va bunday ajoyib ham ijobiy motivatsiyani yaratish usuli bolalar bilan ularni qiziqtiradigan hamda ularga o'z ta'sirini o'tqaza oladigan o'yin o'ynashdir.

<p>Abdug'aniyev Javohirmirzo <i>Andijon Davlat Unversiteti Chet tillari fakultetining 4-bosqich talabasi</i></p> <p style="text-align: center;">NEGA YAPON YUZ YIL YASHAYDI</p>	<p>Elektron pochta manzili:</p>
---	--

Annotatsiya: *Ushbu maqola tibbiy sohaga yaqin bo'lib, bugungi kundagi talabalar hayotida nafaqat talabalarda balki, barcha uchun dolzarb hisoblangan noto'g'ri ovqatlanish va uning oqibatlari haqida so'z boradi.*

Kalit so'zlar:

Epidemiya, virus, tejamkotlik, noto'g'ri ovaqatlanish, anemiya, qandli diabet, temir moddasi, organism, oshqozon.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. "Valeologiya asoslari" o'quv qo'llanma Proferssor D.D.Sharipov <<Musiqqa>> nashriyoti Toshkent 2020
2. Mustaqil O'zbekiston: ishtimoiy – siyosiy va ma'naviy – ma'rifiy hayot M. To'tasinov
3. "Bolalar kasalliklari" B.Qoraho'jayev <<Yangi asr avlodi>> Toshkent 2006
4. "Salomatlik sirlari" U.Karimov <<Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi>> 2000

Ijtimoiy saytlar:

- www.ziyo.net
- WWW.UZ
- "Sog'lom turmish tarzi" telegram kanali

Bugungi kunda butun dunyoda hukm surayotgan epidemiya, inson salomatligi haqida yanada chuqurroq o'ylanishiga va bu sohada bo'lgan kamchiliklarni yaqqol ko'rinishiga sabab bo'ldi desak mubolag'a bo'lmaydi. Yurtimizda ham bu holat davom etmoqda. Yurt boshimizning o'z vaqtida berayotgan buyruq, ko'rsatma, qarorlari, vazirliklarni faolyati va albatta tibbiyot hodimlari, harbiylar yana shu virus bilan kurashish uchun tun u kun hizmat qilib turgan mas'ul soha vakillarining mehnatlari evaziga, bu ko'rinmas dushman bilan kurashib uni yengishga urinib bormoqdamiz. Dunyoning ba'zi rivojlangan davlatlaridan farqli o'raloq, yurtimizda aholiga bepul tibbiy hizmatlar, davolanayotganlar uchun oziq-ovqatlar va yana ko'plab yordamlar berib kelinmoqda. Karantin tufayli ishidan ayrilganlarga, yordamga muhtojlarga, tadbirkorlarga berilayotgan yordamlarni sanab keltirib oxiriga yetib bo'lmaydi. Eng rivojlangan taraqqiy topgan davlatni ham ilojsizlikga inqirozga yaqinlashtirayotgan bu virus, bizni yurtimizda ham deyarli barcha sohaga

ta'sir etmay qolmadi, mana shunday qiyin xalq tili bilan aytganda: yo'g'on cho'zilib, ingichka uzilayotgan vaziyatda yurtimizning voha taraflarida yuz bergan xususan "Sardoba fojiasi", Buxorada bo'lib o'tgan kuchli shamollar xalqimizni sabrini irodasini yana bir karra sinab ko'rdi. Ahillikda birdamlikda juda katta kuch borligini ana o'shanda sezdim. Qiyin axvolda qolgan yurdoshlarmizga o'zlarining uyini, kiyimini, oziq ovqatini, uyida hamma narsasi sel kelgani sabab suv ostida qolib ketgani uchun hatto farzandini o'yinchog'igacha bera oladigan insonlarni dunyoni yana qaysi joyidan topish mukun. Chunki o'sha yordam qo'lini cho'zayotganlarni bazilari ham karantin tufayli o'zlari yordamga muhtoj edi. Shu sinovli kunlarda xalqimizga o'zining mehnatlari bilan, so'zlari bilan, mablag'lari bilan va yana ko'p biz bilgan bilmagan yordamlar bergan insonlarga qancha rahmatlar aytsak kam, bu hayrli ishlaridan alloh rozi bo'lsin. Bo'layotga ishlarga salmoqli hissa qo'sholmagan bo'sakda, vatandoshlarimizdan fahrlanib, o'zbekligimizga va O'zbekiston diyorida tug'ulganimizga shukur qilamiz. Haqiqatdan ham biz allohni nazari tushgan yurtda yashaymiz mustaqilligimizga, tinchligimizga, mehmondo'z axil xalqimizda ko'z tegmasin. Mustaqillikdan beri barcha sohalar kabi tibbiyot sohasiga ham e'tibor qaratib kelingan va kelinmoqda masalan: aloliga berilayotgan bepul tibbiy xizmatlar, vaksinalar, dori darmonlar va buning natijasida yaqin yillardan beri o'rtacha umr ko'rish muddati 73 yoshdan 78 yoshgacha bo'lib o'sib borgan, vaholanki oldingi yillarda bu ko'rsatkich bir muncha kam ya'ni 61-67 yoshni tashkil etgan. Tabiiyki bu ko'rsatkichlar oshishiga sabab aholi sog'lomlashtirilishiga e'tibor berilgani, kishilar o'zi uchun sport bilan shug'ullanayotgani, gigiyenaga amal qilishlari, to'g'ri ovqatlanishga e'tiborlari va boshqa bir talay sabablar bor. Bobomiz Abu Ali Ibn Sino aytganlaridek "Agar inson chang g'ubor bo'lmaganda ming yil yashardi ,,

Darvoqia "Guruch – kumaksiz bo'lmagani " yoki "tangani ikki tarafi bo'lganiday" hamma ham o'zi uchun sog'ligi uchun qayg'uravermaydi, ba'zan qilayotgan ishi noto'g'ri ekanligini sezmay qoladi kishi. Statistik ma'lumotlarga qaraganda dunyoda ochlikdan o'lgan insonlardan ko'ra, noto'g'i ovqatlanish oqibatida turli kasalliklarga chalilib vafot etganlar soni ko'p ekan. Sayyoramizda 2 milliard inson (26 foizi) temir moddasi va A vitamini kabi odam organizmi uchun o'ta zarur bo'lgan organik mikroelementlarni talab darajasida tanovul qilmaydi, — dedi B.Yusupaliyev. — Shu tufayli aksariyat bolalarning o'sishi va rivojlanishi ortda qolmoqda, ular surunkali tinka qurishidan aziyat chekyapti. Bularning asosiy sababi nosog'lom ovqatlanish va turmush tarzidagi kamchiliklardir. Bu esa yurak-qon tomir kasalliklari, qandli diabet, saraton va boshqa surunkali xastaliklar, shuningdek, semizlik, kam qonlikka olib keladi. Natijada aholining yaxshi yashashiga va sihat-

salomatligiga salbiy ta'sir qiladi. Birgina keng tarqalgan kamqonlik anemiyasining o'zi jiddiy e'tibor qaratish lozim bo'lgan muammolar sirasiga kiradi. Jahon sog'liqni saqlash tashkilotining ma'lumotlariga ko'ra, hozirgi kunda dunyodagi 1,62 milliarddan ortiq inson temir tanqisligi anemiyasiga chalingan. Shunday ovqatlanishdagi katta xatolar biz talabalarni hayotida ham ko'p uchrab turadi, sababi biz juda bantmiz: biz doim bandmiz. Vaqtimizni salmoqli qismini ishtimoiy tarmoqlarda va boshqa katta-kichik, muhim-nomuhim ishlarimiz bilan deyarli har kuni o'qishda ovqatlanish uchun ajratilgan vaqtni asosiy qismini, ba'zida hammasini boshqa ishlarga sarflaymiz. Tabiiyki keyingi darsga shoshilib tez ovqatlanamiz, yoki bu ishni ham keyingi bo'sh vaqtimizga suramiz. Oshqozonimiz doimgidek bizni tanlovimizga ko'zishga majbur, talabalar tili bilan aytganda oshqozonimiz-bizga nega ovqat kelmayapti yoki juda kechikdi deb "NB,, qo'maydiku to'g'rimi? Mayli buni qo'yib turaylik goho vaqt ham mablag' ham bo'ladi, lekin bunda ham "tejamkotlik" bilan juda kam yo juda ko'p taom istemol qilamiz. Keragidan ortiq ovqatlanish ham talabalarda tejamkorlikni bir turi ya'ni qolib ketmasin uvol bo'lmasin qabiladagi gaplarni aytib majburan yeymiz, kechgi ovqat paytida ham shunaqa ahvol, yotishdan avval og'ir ovqatlarni yoki bugun o'zimizda borini tanavvul qilamiz u qanday ovqatligi qanchalik sifatligi unchalik qiziq emas. Shu sabab ertalabgacha qornimiz og'rishi qinalishimiz ham bor gap. Eng achinarlisi ko'pchilik oddiygina telefoniga ajratadigan vaqtini, mablag'ini, mehrini yarmini ham shu o'zini oshqoniga <qorniga> sariflamaydi. Statistik ma'lumotlar va bizga o'tilgan Valyalogiya fanidan shuni bildikki talabalar orasida eng ko'p uchraydigan kasalliklar kam qonlik va noto'g'ri ovqatlanish oqibarida kelib chiqadigan oshqozon kasallilari ekan. Noto'g'ri ovqatlanish bizga azaldan merosmismikin? chunki biz o'zbeklar o'z mashinamizga yaxshi yurishi, buzilmasligi uchun yaxshi benzin, sifatli moy quyamiz. Yo'lda kerakli joyda buzulib qolmasligi uchun vaqti vaqti bilan tajribali ustaga ko'rsatib turamiz, Lekin o'zimiz istemol qiladigan mahsulotlarni sifatiga ba'zida e'tibor ham bemaymiz. Aynan manashu sohalarda aholi va kelajak egalari bo'lgan yoshlarni hayotiga qandaydir yangiliklar kiritish kerak emasmikin? Tushuntirish ishlari olib borib, o'rgatish tavsiya etishlar kabi, Bu holatlar tibbiyot hodimlarini ishida yanada mas'uliyatni oshiradi. Dunyoda kechayotgan bugungi vaziyat, tobora kuchayib keng tarqalayotgan viruslar ham avvaldan kasal bo'lgan insonlarda og'ir kechayotgani achinarlisi o'lim bilan tugayotgani, sog'lom insonlarni esa cheklab, yuqsa ham nisbatan yengil o'tayotgani hammamizda ma'lum. Nega xalqimiz pul toppish, bola chaqa, to'y, deb oz vaqtida e'tibor berilmagan kasalliklarni o'tkizib, umr o'tib yosh ham 50-60ga borganida, farzandlar o'sib qo'lidan ishini olganida endi

“og’zi oshga yetganida” fursat kutayotgan kasallik o’z ishini qilishi bitirishi kasalmand bolib qolish yoki bundan ham yomon holatlar yuz berishi haqida o’ylamaydi. Talabalar ham xuddi shunday, biz bugun oliygohda o’qishimiz ertangi porloq hayotga katta qadamligini, ertaga qandaydir kasallikga chalinib ishlolmay qiynalganimizda, bu olgan diplomimiz qancha yordam berarkin, hozirdan o’zimiz haqimizda o’lamosak... Sog’ tanda sog’lom aqil deyishganku axir.

Biz ko’p sohalarda chet eldan andoza olamiz. Lekin nega bu sohada emas? Masalan: **Yaponiya** bugun hech kimga sir emas yaponlar er yuzidagi eng uzoq umr ko’rgan millatdir. Yaponlar orasida deyarli yog 'yo'q: 100 kishidan atigi uchtasi ortiqcha vaznga ega bo'lishi mumkin, bu frantsuznikiga qaraganda 3 baravar, amerikaliklarga qaraganda 10 baravar kam Mutaxassislar bu hodisani bir necha omillar bilan izohlashadi - bu ularning o'ziga xosdir farovonlik falsafasi - ular to'g'ri ovqatlanishadi, ko'p harakat qilishadi, mineral buloqlarni ziyorat qilishadi. Salomatlik va uzoq umr ko'rishning ushbu ko'rsatkichlariga tibbiyot uchun eng kam xarajat evaziga erishiladi. Yapon oshxonasining asosi baliq, sabzavot, meva, soya va guruchdir. Albatta hukumat ham aholi uchun keng imkoniyatlar yaratgan. **Fransiyada** talabalar sog’lig’iga katta e’tibor berilib, ular tanavvul qiladigan mahsulotlar nazoratga olingan ekan. Ular uchun mahsus restoranlar bo’lib u yer faqat 4 narsadan iborat bo’lgan munyu – salat, desert, issiq ovqat, non bor yo’g’i uch yevroni tashkil etadi va bu yerdagi ovqatlar juda sifatli bo’lib, vegiterianlar va go’sht istemol qiluvchilar uchun keng imkoniyatlar yaratilgan ekan. To’g’ri ovqatlanish haqida biz hammamiz keragicha o’qiganmiz bilamiz lekin afsuski bunga amal qilmaymiz.

Bugun bizlarga yaratilgan sharoidlar ham albatta yomon emas havas qiladigan jihatlarini ham topsa bo’ladi lekin bu sohani yanada yaxshilash sifatli qilish mumkun. Talabalar biz bor sharoitdan to’g’ri foydalanaylik! Kelajakda har tomonlama yetuk kadr bo’lib yetishishimiz uchun bugun unchalik e’tibot bemayotgan sog’ligimiz ham muhum va katta ahamiyatga egadir. Maqolamga adibimiz Erkin Vohidovni she’ridan sarlavha qilib olgan edim so’nggi so’z o’rnida ham mana shu she’rdan foydalanishni joiz deb topdim:

Nega yapon yuz yil yasharu
O’zbek buncha yoshga bormaydi?
Chunki yapon bizdek qorong’u
Sahar turib oshga bormaydi.

Ta’ziyada el ko’zi uchun

Ming kishilik ziyofat qurmas.
Hayiti yo'q, bel bog'lab uch kun
Shamday qotib ko'chada turmas.

Garchi bizdan yuz bor farovon,
Garchi bizdan yuz karra to'qdir.
To'y xarjida yuzta boy yapon
Bir kambag'al o'zbekcha yo'qdir.

Bu so'zimni yaponga aytsam
Dedi battar qisib ko'zini:
—Yapon bundoq yasholmas hech ham,
—Xarakiri qilar o'zini.

Erkin Vohidov

<p>Choriyeva Nigora Aralovna <i>2-Ixtisoslashtrilgan maktabgacha ta'lim tashkiloti hamshirasi</i></p> <p style="text-align: center;">IMKONIYATI CHEKLANGAN BOLALARGA RATSIONAL OVQATLANTIRISHNI TO'G'RI TASHKIL ETISH</p>	<p><i>Elektron pochta manzili:</i></p>
---	--

Annotatsiya: *ushbu maqola imkoniyati cheklangan bolalarga ratsional ovqatlantirishni to'g'ri tashkil etish hamda ularning vitaminlarga bo'lgan kunlik ehtiyojlarini tabiiy maxsulotlar bilan to'ldirish to'g'risida yozilgan.*

Kalit so'zlar:

Vitamin, ovqat, ratsion, organism, mol go'shti, sabzavot, mevalar, sut maxsulotlari.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI:

1. Aminov B., Tilolov T. " Odam va uning salomatligi " T. «O`qituvchi» 1993 yil.
2. Klemesheva L. Ergasheva M. " Yoshga oid fiziologiya " T. «O`qituvchi» 1991 yil.
3. <https://azkurs.org/yosh-fiziologiyasi-va-gigiyenasi.html?page=11>
4. <https://avitsenna.uz/bolalar-ovqatining-asosiy-tamoyillari/#gsc.tab=0>

Uning poydevori mustahkam bo'lsa, uning o'zi ham shunchalik mustahkam bo'ladi. Bu qurilish ishlarida ishlatiladigan tushuncha bo'lsa-da, uni inson organizmiga nisbatan ham qo'llash mumkin.

Chaqaloq dunyoga kelishi bilan uning organizmiga keyinchalik rivojlanishi uchun "baquvvat" ovqat zarur bo'ladi. Albatta bu haqda, birinchi navbatda, bolaning otanasi qayg'uradi. Bolaning salomatligi aynan ularga bog'liq.

Lekin so'g'lom tug'ilgan bolalarga nisbatan muddatidan oldin tug'ilgan, nogironligi bo'lgan ya'ni imkoniyati cheklangan bolalar ko'proq e'tibor talab qiladi va ovqatlanish ratsioni hamda kun tartibi ham sog'lom bolalardan farq qiladi.

Imkoniyati cheklangan bola organizmida u yoki bu foydali moddaga tanqislik bo'lmasligi uchun bolaga nimalar taqiqlanganini hisobga olgan holda xilma-xil aralash ovqat zarur. Bola ratsioniga o'simlik va mol gushti mahsulotlarini qaynatma yoki dimlama ko'rinishida kiritish juda muhim. Ba'zilarini o'zingiz tayyorlashingiz, boshqalarini esa pishirilgan holda berishingiz mumkin. Bunday birikmalar tufayli maxsus boyitilgan mahsulotlarga bo'lgan zarurat yo'qoladi.

Bola organizmi barcha narsaga tez o'rganib qoladi, shu bois bolani muayyan bir xil ovqatga yoki dori vositalariga o'rgatish tavsiya etilmaydi. Undan faqat vegetarianlar ovqatini iste'mol qilishni talab etish yoki faqat yuqori kaloriyali

mahsulotlar bilan ovqatlantirish mumkin emas. Sut foydali albatta, ammo ovqat ratsioniga boshqa mahsulotlarni kiritmasangiz bolada oziqlantiruvchi moddalar, vitaminlar, mikroelementlar, yog' kislotalari yetishmasligi rivojlanadi. Bu esa bolani yana ham zaiflashtiradi.

Bolaning ta'm bilish xususiyati to'g'ri rivojlanishi uchun ovqatni kichik porsiyalar ko'rinishida berish zarur. Shunda bolada muayyan ta'mga, ya'ni sho'r, achchiq yoki shirin ovqatga mayl paydo bo'lishining oldi olingan bo'ladi.

Menyuni shunday tuzish kerakki, unda faqat issiq yoki sovuq ovqatlar bo'lmasin. Ovqatlanish sxemasi taxminan quyidagicha bo'lishi kerak:

Nonushta – saryog' va pishloq bilan qora non, vetchina yoki qaynatib pishirilgan go'sht bo'lagi, bir stakan iliq sut. Bu nima beradi? Bola organizmi A, B, B1, B2 vitaminlari, oqsil, kalsiy, mis, fosfor moddalari bilan ta'minlanadi.

Ikkinchi nonushta - organizmni C vitamini bilan ta'minlaydigan ho'l mevalar va sharbatdan iborat bo'lishi lozim.

Tushlik – issiq ovqat, kartoshka sabzavotlar va go'sht yoki baliq go'shti hamda salat bilan. Bu nima beradi? Organizm temir, rux, yod, oqsil moddalari, foliy kislotasini yaxshi hazm qiladi va B1, B6, C vitaminlariga to'yinadi.

Kechki ovqat – taxminan nonushtadagi kabi.

Dasturxon atrofidagi sharoit ham juda muhim rol o'ynaydi. Bolalar chiroyli va o'ziga tortadigan narsalarni yoqtirishadi. Shuning uchun dasturxonni tuzashga ham katta e'tibor berish lozim. Bola ovqatlanayotgan paytda uni yaxshi odatlarga o'rgatish zarur. Nonushta va kechki ovqatni oila bilan birgalikda dasturxon atrofida qilgani ma'qul, iloji bo'lsa tushlikni ham, albatta. Ovqat tayyorlash vaqtida osh tuzi o'rniga ko'proq xushta'm giyohlar va achchiq bo'lmagan ziravorlardan foydalangan yaxshi.

Har bir ona farzandi qancha ovqat iste'mol qilishini, unga zarur porsiya miqdorini taxminan biladi. Biroq ba'zida ishtaha yo'qolib turadi, bola uzoq vaqt ovqat so'ramay qolishi yoki aksincha, ishtahasi ochilib ketishi mumkin. Agar bunday holat uzoqqa cho'zilmasa, xavotir olmaslik va darhol chora ko'rishga shoshilmaslik kerak. Ishtaha uzoq vaqt to'g'ri chegaradan chiqib ketganida yoki u umuman yo'q bo'lgan taqdirdagina, shifokor maslahati bola ovqatini to'g'ri balanslashga yordam beradi.

Imkoniyati cheklangan bolalar qanchalik kichkina bo'lsa, unda suyuqlikka bo'lgan talab shunchalik ko'p bo'ladi. Normal sog'lom bola issiq kunlarda yoki jismoniy mashg'ulotlar paytida odatdagidan ko'ra ikki baravar ko'proq suv ichadi. Bunday paytlarda faqat oddiy toza suv iste'mol qilgan yaxshi, o'tlar yoki mevalardan

tayyorlangan qandsiz choy, bittaga bitta suv qo'shilgan tabiiy sharbatlar ham bo'ladi. Sitro, kola, gazli mineral suv, vijillaydigan ichimliklar tavsiya etilmaydi. Bunday ichimliklar tashnalikdan xalos etmaydi va organizmdagi qand miqdorini ko'paytirib yuboradi.

Ba'zida imkoniyati cheklangan bolalar sut mahsulotlarini yoqtirmasligi ham kuzatiladi, bu holda pishloq va tvorog unga muqobil variant bo'lishi mumkin. Sut mahsulotlari bolani kalsiy, fosfor, oqsil moddalari va A, B1, B2 vitaminlari bilan ta'minlaydi. Do'kondan sut olayotgan vaqtda yog'liligi 3,5% bo'lgan (yog'lilik mahsulotda A va D vitaminlari mavjudligini ko'rsatadi) sutni tanlagan ma'qul. Yogurtni o'zingiz tayyorlaganingiz yaxshiroq. Ya'ni oddiy yogurt olib, unga kesilgan ho'l mevalarni qo'shing. Bu do'konda sotiladigan yogurtlarda mavjud bo'ladigan qand moddasidan saqlaydi.

Ho'l meva va sabzavotlar yoki ularning muzlatilgani mikroelementlarga juda boy. Ularni imkoniyati cheklangan bolalar pishirilgan va pishirilmagan holatda iste'mol qilishi mumkin. Konservalarda sog'liq uchun zarur bo'lgan moddalar bo'lmaydi, ko'p miqdordagi qand moddasi esa, bolaga kerak emas. Imkoniyati cheklangan bolalar uchun sabzavotlardan eng ma'quli – gulkaram, brokkoli, sabzi, arpabodiyondir. Oq karam ham foydali, ammo u qiyinroq hazm bo'ladi. Mevalarni mavsumga qarab o'zingiz yashaydigan joyga xos bo'lganini tanlang.

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, imkoniyati cheklangan bolalarning bir kunda yeydigan ovqati shu vaqt ichida sarf etilgan energiya o'rnini qoplashi va o'sishni ta'minlashi kerak. Bolalarni ovqatlantirishda ovqat tarkibidagi mahsulotlar nisbatini olish kerak.

<p>Mamasoatova Matluba Nurmatovna <i>1-DMTTda tarbiyachi</i></p> <p style="text-align: center;">MAKTABGACHA TA'LIMDA SHAXSGA YO'NALTIRILGAN HAMKORLIK TA'LIMI TEXNOLOGIYALARI</p>	<p><i>Elektron pochta manzili:</i></p>
---	--

Annotatsiya: *Ushbu maqolada maktabgacha ta'lim tashkilotlarida hamkorlik ta'limi texnologiyalari, uning yo'nalishlari, tarkibiy elementlari, tamoyillari, belgilari hamda ulardan foydalanib bolani shakllantirish masalalariga to'g'ri yondoshish haqida so'z boradi.*

Kalit so'zlar:

Maktabgacha ta'lim tashkilotlari, hamkorlik ta'limi texnologiyalari, bola, shaxs, jamoa, guruh, juftlik.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI:

1. Ishmuxamedov.R.J. va boshqalar "Ta'limda innovatsion texnologiyalar". T.: Iste'dod. 2008 y.
2. Ishmatov Q. «Pedagogik texnologiya». Namangan 2004 yil.
3. Yo'ldoshev J "Ta'lim yangilanish yo'lida" T.: O'qituvchi. 2000 y
4. <http://library.ziyonet.uz/>

Bugungi kunda barkamol yetuk shaxsni shakllantirish dolzarb muammo sifatida maydonga chiqdi. Shaxsni shakllantirish masalalariga to'g'ri yondoshish uchun shaxsning tabiatini, tuzilishini, uning xulq-atvori sabablarini va unga ta'sir ko'rsatish vositalarini bilish zarur. Ayniqsa, ta'lim jarayonida qo'llaniladigan pedagogik texnologiyalarni tanlashda ana shu jihatlarga e'tiborni qaratish lozim. Chunki ta'lim jarayonida o'quvchilarning qiziqishlari va qobiliyatlari namoyon bo'ladi va mustahkamlanadi. Bilish, iroda va hissiyot jarayonlari o'qish-o'rganishda yuzaga chiqadi va taraqqiy etadi. O'quvchilar aqliy jihatdan ancha o'zgaribgina qolmay, ularning xarakter sifatleri ham o'zgaradi, axloqiy jihatdan ham o'zgaradilar. Ta'lim-tarbiya jarayonida psixikaning qanchalik tez va samarali taraqqiy etishi pedagoglarning diqqat-e'tiboriga va pedagogik texnologiyalarning to'g'ri tanlanishiga ko'p jihatdan bog'liqdir.

Shuni ham alohida ta'kidlash lozimki, maktabgacha ta'lim tashkilotida hamkorlik ta'limi texnologiyalarining qo'llanilishi ko'zda tutilgan natijalarni bermoqda. Uning didaktik mohiyatiga keladigan bo'lsak, zamonaviy sharoitda hamkorlik ta'limi, uni tashkil etish o'ziga xos ahamiyat kasb etmoqda.

Hamkorlik ta'limi texnologiyalari – o'quv jarayonida bolalarning jamoada, kichik guruh va juftlikda bilimlarni birgalikda o'zlashtirishlari, o'zaro rivojlanishlari,

shuningdek, “pedagog-o’quvchi(lar)” munosabatining hamkorlikda tashkil etilishini ta’minlovchi ta’limiy xarakterdagi texnologiyalar.

Hamkorlik ta’limi texnologiyalarining g’oyalari o’tgan asrning 80-yillarida J.J.Russo, K.D.Ushinskiy, V.A.Suxomlinskiy, A.S.Makarenko va boshqa novator-pedagoglarning qarashlari asosida shakllangan. Hamkorlik ta’limi texnologiyalari bolalarda intellektual, ma’naviy-axloqiy va jismoniy qobiliyat, qiziqish, motivlarni rivojlantirish asosida dunyoqarashni hosil qilish maqsadini ilgari suradi. Hamkorlik ta’limi texnologiyalari “Cooperative learning”dan farq qilib, u juftlik va kichik guruhda ishlash orqali bolalarning jamoada faoliyat yuritish ko’nikmalariga ega bo’lishlarini ta’minlaydi.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida hamkorlik ta’limi yo’nalishlari quyidagilardan iborat:

- ta’limiy hamkorlikka asoslanuvchi munosabatlarni tashkil etish;
- bolalarga insonparvarlik g’oyalari asosida individual yondashish;
- ta’lim jarayonida kasbiy va ma’naviy birlikning qaror topishiga erishish.

Hamkorlik ta’limi texnologiyalarining tarkibiy elementlari:

1. Tayanch konspekt (fizik, matematik va kimyoviy formulalar, tezislar, izohlovchi suratlar, qisqacha xulosalar, ramziy belgilar, sxemalar, grafiklar, jadvallar, diagrammalar)dan foydalanish.

2. Maktab yoshiga yetgan bolalar bilimlarini test asosida sinovdan o’tkazish.

3. Bolalarning o’zlashtirish ko’rsatkichlarini baholash.

Hamkorlik ta’limi texnologiyalari tamoyillari esa quyidagicha tavsiflanadi:

- juftlik va kichik guruh a’zolarining o’zaro birligi;
- juftlik va kichik guruhda har bir a’zoning shaxsiy va guruh muvaffaqiyati uchun javobgarligi;

- kichik guruhda hamkorlikka asoslangan o’quv-bilish faoliyatini tashkil etish;

- guruh va jamoa ishining umumiy baholanishi.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida hamkorlik ta’limi texnologiyalarining belgilari:

- bola shaxsi, individualligiga e’tibor qaratish;

- tayyor bilimlarni o’zlashtirish va ularni qayta ishlab chiqishni yo’lga qo’yish;

- bolalarda mustaqil va tanqidiy tafakkurni rivojlantirish;

- pedagogga va tengdoshlarga nisbatan ijobiy munosabatning yuzaga kelishini ta’minlash;

- bolalarda madaniy muloqot ko’nikmalarini rivojlantirish;

- hamkorlik va o’zaro tenglikka asoslangan muhitni yaratish.

Hamkorlik ta'limi texnologiyalarini qo'llashda bolalar quyidagi shakllarda ta'lim oladilar:

- 1) jamoada;
- 2) kichik guruhda;
- 3) juftlikda

Hamkorlik ta'limi texnologiyalarini qo'llashda bolalardan quyidagilar talab etiladi:

- sherigi va guruhdoshlari bilan hamkorlikka erishish;
- faol ishlash, topshiriqqa nisbatan mas'uliyatli yondashish;
- sherigi yoki guruhdoshlariga ijobiy munosabatda bo'lish;
- nafaqat o'z yutug'i, balki sherigi va guruhining muvaffaqiyati uchun javobgarlikni his qilish;
- juftlikda va guruhda ishlash – jiddiy va mas'uliyatli mehnat ekanligini his qilish.

Bugungi kunda barkamol yetuk shaxsni shakllantirish dolzarb muammo sifatida maydonga chiqdi. Shaxsni shakllantirish masalalariga to'g'ri yondoshish uchun shaxsning tabiatini, tuzilishini, uning xulq-atvori sabablarini va unga ta'sir ko'rsatish vositalarini bilish zarur. Ayniqsa, ta'lim jarayonida qo'llaniladigan pedagogik texnologiyalarni tanlashda ana shu jihatlarga e'tiborni qaratish lozim. Chunki ta'lim jarayonida o'quvchilarning qiziqishlari va qobiliyatlari namoyon bo'ladi va mustahkamlanadi. Bilish, iroda va hissiyot jarayonlari o'qish-o'rganishda yuzaga chiqadi va taraqqiy etadi. O'quvchilar aqliy jihatdan ancha o'zgaribgina qolmay, ularning xarakter sifatleri ham o'zgaradi, axloqiy jihatdan ham o'zgaradilar. Ta'lim-tarbiya jarayonida psixikaning qanchalik tez va samarali taraqqiy etishi pedagoglarning diqqat-e'tiboriga va pedagogik texnologiyalarning to'g'ri tanlanishiga ko'p jihatdan bog'liqdir.

Shuni ham alohida ta'kidlash lozimki, maktabgacha ta'lim tashkilotida hamkorlik ta'limi texnologiyalarining qo'llanilishi ko'zda tutilgan natijalarni bermoqda. Uning didaktik mohiyatiga keladigan bo'lsak, zamonaviy sharoitda hamkorlik ta'limi, uni tashkil etish o'ziga xos ahamiyat kasb etmoqda.

Hamkorlik ta'limi texnologiyalari – o'quv jarayonida bolalarning jamoada, kichik guruh va juftlikda bilimlarni birgalikda o'zlashtirishlari, o'zaro rivojlanishlari, shuningdek, "pedagog-o'quvchi(lar)" munosabatining hamkorlikda tashkil etilishini ta'minlovchi ta'limiy xarakterdagi texnologiyalar.

Hamkorlik ta'limi texnologiyalarining g'oyalari o'tgan asrning 80-yillarida J.J.Russo, K.D.Ushinskiy, V.A.Suxomlinskiy, A.S.Makarenko va boshqa novator-pedagoglarning qarashlari asosida shakllangan. Hamkorlik ta'limi texnologiyalari

bolalarda intellektual, ma'naviy-axloqiy va jismoniy qobiliyat, qiziqish, motivlarni rivojlantirish asosida dunyoqarashni hosil qilish maqsadini ilgari suradi. Hamkorlik ta'limi texnologiyalari "Cooperative learning"dan farq qilib, u juftlik va kichik guruhda ishlash orqali bolalarning jamoada faoliyat yuritish ko'nikmalariga ega bo'lishlarini ta'minlaydi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida hamkorlik ta'limi yo'nalishlari quyidagilardan iborat:

- ta'limiy hamkorlikka asoslanuvchi munosabatlarni tashkil etish;
- bolalarga insonparvarlik g'oyalari asosida individual yondashish;
- ta'lim jarayonida kasbiy va ma'naviy birlikning qaror topishiga erishish.

Hamkorlik ta'limi texnologiyalarining tarkibiy elementlari:

1. Tayanch konspekt (fizik, matematik va kimyoviy formulalar, tezislar, izohlovchi suratlar, qisqacha xulosalar, ramziy belgilar, sxemalar, grafiklar, jadvallar, diagrammalar)dan foydalanish.

2. Maktab yoshiga yetgan bolalar bilimlarini test asosida sinovdan o'tkazish.

3. Bolalarning o'zlashtirish ko'rsatkichlarini baholash.

Hamkorlik ta'limi texnologiyalari tamoyillari esa quyidagicha tavsiflanadi:

- juftlik va kichik guruh a'zolarining o'zaro birligi;
- juftlik va kichik guruhda har bir a'zoning shaxsiy va guruh muvaffaqiyati uchun javobgarligi;
- kichik guruhda hamkorlikka asoslangan o'quv-bilish faoliyatini tashkil etish;
- guruh va jamoa ishining umumiy baholanishi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida hamkorlik ta'limi texnologiyalarining belgilari:

- bola shaxsi, individualligiga e'tibor qaratish;
- tayyor bilimlarni o'zlashtirish va ularni qayta ishlab chiqishni yo'lga qo'yish;
- bolalarda mustaqil va tanqidiy tafakkurni rivojlantirish;
- pedagogga va tengdoshlarga nisbatan ijobiy munosabatning yuzaga kelishini ta'minlash;
- bolalarda madaniy muloqot ko'nikmalarini rivojlantirish;
- hamkorlik va o'zaro tenglikka asoslangan muhitni yaratish.

Hamkorlik ta'limi texnologiyalarini qo'llashda bolalar quyidagi shakllarda ta'lim oladilar:

- 1) jamoada;
- 2) kichik guruhda;
- 3) juftlikda

Hamkorlik ta'limi texnologiyalarini qo'llashda bolalardan quyidagilar talab etiladi:

- sherigi va guruhdoshlari bilan hamkorlikka erishish;
- faol ishlash, topshiriqqa nisbatan mas'uliyatli yondashish;
- sherigi yoki guruhdoshlariga ijobiy munosabatda bo'lish;
- nafaqat o'z yutug'i, balki sherigi va guruhining muvaffaqiyati uchun javobgarlikni his qilish;
- juftlikda va guruhda ishlash – jiddiy va mas'uliyatli mehnat ekanligini his qilish.

Болтаев О.Т

Нафасов Н.О

*Тошкент давлат транспорт университети (Тошкент,
Ўзбекистон)*

Elektron pochta manzili:

**ҚЎЗҒАЛУВЧАН ЭЛЕКТРОМАГНИТ ЭКРАНЛИ ЎЗГАРТИРГИЧ
МАГНИТ ЗАНЖИРИ АСОСИЙ КАТТАЛИКЛАРИНИ ҲИСОБЛАШ**

Аннотация: *Мақолада муаллифлар томонидан яратилган қўзғалувчан электромагнит экранли ва тарқоқ параметрли ўзгартиргич магнит занжири асосий катталикларини ток ва кучланиш режимларида ҳисоблаш ифодалалари ишлаб чиқилган ва қўзғалувчан электромагнит экранли занжир вектор диаграммаси қурилган ҳамда ток режимида қўзғалувчан экраннинг қўзғатиш контурига таъсири қўзғатиш чулғами токи ёрдамида компенсацияланмаслиги аниқланган.*

Калит сўзлар:

Қўзғалувчан электромагнит экран, магнит занжир, ўзгартиргич, қисқа туташтирилган чулғам, ток режими, кучланиш режими.

Фойдаланилган адабиётлар:


1. Амиров С.Ф., Болтаев О.Т. Қўзғалувчан экранли ва тарқоқ параметрли магнит занжирлар ва ўзгартиргичлар. Монография. Тошкент: "Fan va texnologiya", 2019 – 176 бет.
2. Патент РУз (UZ) № IAP 04866. Магнитоупругий датчик усилий/ Амиров С.Ф., Назирова З.Г., Жураева К.К., Болтаев О.Т., Шарапов Ш.А., Файзуллаев Ж.С.// Официальный вестник – 2014. - №4.
3. Amirov S.F., Boltayev O.T., Axmedova F.A. Calculation of Magnetic Chains with Mobile Screens // International Journal of Advanced Research in Science Engineering and Technology. India. - №6, Issue 5, May 2019 – pp. 9243-9245.
4. Amirov S.F., Boltayev O.T., Axmedova F.A. New created mathematical models of movable screens and a scatter parameters converters // Jour of Adv Research in Dynamical & Control Systems, Vol. 12, Special Issue-02, 2020. pp. 122-126
5. Амиров С.Ф., Болтаев О.Т. The study of dynamic modes of converters with movable electromagnetic screens and distributed parameters. Chemical Technology. Control and Management. - 2019. - № 6. - S. 19-25.
6. Амиров С.Ф., Болтаев О.Т., Жураева К.К. Исследование магнитных цепей новых преобразователей усилий. Научный журнал.

Автоматизация. Современные технологии: научный журнал. Москва, 2020. – №1. С. 24-26.

7. Амиров С.Ф., Болтаев О.Т., Атауллаев А.О. Исследование двухконтурных магнитных цепей датчиков с распределенными электромагнитными параметрами. II Международная научно - техническая конференция «Проблемы получения, обработки и передачи измерительной информации» 19-20 сентября 2019г. г. Уфа. – с.128-132.

8. Amirov S.F., Boltayev O.T. Mathematical models of differential magnetic circuits of converters with movable screens and distributed parameters. Journal of Tashkent Institute of Railway Engineers 15 (3), 2019. pp. 75-81.

Қўзғалувчан электромагнит экранли магнит занжирларида экран тўлиқ электромагнит тўлқин таъсирида бўлмайди. Бундан ташқари, электромагнит экран ҳаракатланадиган стержень актив қисмининг кенглиги стержень узунлигига нисбатан сезиларли даражада кичик. Электромагнит экранда ушбу хусусиятларнинг мавжудлиги ғалтакли экран тўлдириш коэффициентининг яхлит экран тўлдириш коэффициентига нисбатан кичик бўлишига қарамасдан электромагнит экранни йиғиқ қисқа туташтирилган чулғам деб, қараш имконини беради. Шунинг учун қўзғалувчан электромагнит экранли магнит занжирларини контурлари орасида ўзгарувчан коэффициентли электромагнит боғланиш мавжуд бўлган икки чулғамли занжир сифатида кўриб чиқиш мумкин (1 - расм).



1 – расм.

Синусоидал ток ва кучланишда иккита ўзаро индуктив боғланган қўзғалувчан электромагнит экранли ҳар қандай электр занжири учун Кирхгоф тенгламалари асосида қуйидаги тенгликларни ёзиш мумкин:

$$I_{\kappa} R_{\kappa} + jI_{\kappa} x_{\kappa} + jI_{\text{ЭК}} x_{\kappa\text{ЭК}} = U_{\kappa}, \quad (1)$$

$$I_{\text{ЭК}} R_{\text{ЭК}} + jI_{\text{ЭК}} x_{\text{ЭК}} + jI_{\kappa} x_{\kappa\text{ЭК}} = 0, \quad (2)$$

бу ерда R_{κ} , $R_{\text{ЭК}}$ ва x_{κ} , $x_{\text{ЭК}}$ – мос равишда қўзғатиш чулғами ва қўзғалувчан экраннинг актив ва тўла хусусий индуктив қаршиликлари; $x_{\kappa\text{ЭК}}$ - ўзаро индуктив қаршилик; I_{κ} ва $I_{\text{ЭК}}$ - мос равишда қўзғатиш чулғами ва қўзғалувчан экраннинг токлари; U_{κ} – қўзғатиш чулғамига берилган манба кучланиши.

Яратилган қурилма [1] дифференциал магнит занжири учун (1) ва (2) ифодалардаги x_{κ} , $x_{\text{ЭК}}$ ва $x_{\kappa\text{ЭК}}$ параметрлар қуйидаги тенгламалар ёрдамида аниқланади:

$$x_{\kappa} = \omega L_{\kappa} = x_{\kappa\text{С}} + x_{\kappa\text{М}};$$

$$x_{\text{ЭК}} = \omega L_{\text{ЭК}} = x_{\text{ЭК}\text{С}} + x_{\text{ЭК}\text{М}};$$

$$x_{\kappa\text{ЭК}} = \omega M_{\kappa\text{ЭК}}, \quad (1a)$$

бу ерда $x_{\kappa\text{С}} = \omega w_{\kappa}^2 C_{\mu\text{С}}^{\kappa}$, $x_{\text{ЭК}\text{С}} = \omega w_{\text{ЭК}}^2 C_{\mu\text{С}}^{\text{ЭК}}$ – мос равишда қўзғатиш чулғами ва қўзғалувчан экран сочилма индуктивлик қаршиликлари; $x_{\kappa\text{М}}$, $x_{\text{ЭК}\text{М}}$ – мос равишда қўзғатиш чулғами ва қўзғалувчан экран асосий индуктив қаршиликлари; $L_{\kappa} = w_{\kappa}^2 C_{\mu\text{С}}^{\kappa} + w_{\kappa}^2 C_{\mu\text{Х}}^{\kappa}$, $L_{\text{ЭК}} = w_{\text{ЭК}}^2 C_{\mu\text{С}}^{\text{ЭК}} + w_{\text{ЭК}}^2 C_{\mu\text{Х}}^{\text{ЭК}}$ – мос равишда қўзғатиш чулғами ва қўзғалувчан экран индуктивликлари; $M_{\kappa\text{ЭК}} = w_{\kappa} w_{\text{ЭК}} C_{\mu\text{Х}}$ – қўзғатиш чулғами ва қўзғалувчан экран ўзаро индуктивлиги; $C_{\mu\text{С}}^{\kappa}$, $C_{\mu\text{С}}^{\text{ЭК}}$ – мос равишда қўзғатиш чулғами ва қўзғалувчан экран сочилма магнит сиғимлари (классик аналогия бўйича сочилма ўтказувчанлик); $C_{\mu\text{Х}}$ – ҳалқасимон ўзак магнит сиғими.

Қўзғалувчан электромагнит экранли ва тарқоқ параметрли занжирлар асосан қуйидаги режимлардан бирида ишлайди:

- ток режимида ($I_{\kappa} = \text{const}$);
- кучланиш режимида ($U_{\kappa} = \text{const}$).

Ток режимида қўзғалувчан электромагнит экран параметрлари ($R_{\text{ЭК}}$, $x_{\text{ЭК}}$) ва координатасининг ўзгариши қўзғатиш чулғам қисмаларидаги кучланишни ўзгаришига сабаб бўлади, чунки бундай пайтда қўзғатиш чулғамини кесиб ўтувчи магнит оқимининг қиймати ўзгаради.

Кучланиш режимида эса қўзғатиш чулғами қисмаларидаги кучланиш ва қўзғатиш магнит оқими ўзгармайди, аммо қўзғатиш чулғамининг токи ўзгаради. Бунда қўзғалувчан электромагнит экран параметрлари ва координатасининг ўзгариши бирламчи чулғам актив ва индуктив қаршиликларини ўзгаришига олиб келади.

(1) ва (2) тенгламаларни биргаликда ечиб, i_{κ} ва $i_{\text{ЭК}}$ тоқларни аниқлаймиз:

$$i_{\kappa} = \frac{\dot{U}_{\kappa}(R_{\text{ЭК}} + jx_{\text{ЭК}})}{(R_{\kappa} + jx_{\kappa})(R_{\text{ЭК}} + jx_{\text{ЭК}}) + x_{\text{ЭК}\kappa}^2}; \quad (3)$$

$$i_{\text{ЭК}} = \frac{-j\dot{U}_{\kappa}x_{\text{ЭК}\kappa}}{(R_{\kappa} + jx_{\kappa})(R_{\text{ЭК}} + jx_{\text{ЭК}}) + x_{\text{ЭК}\kappa}^2} = -ji_{\kappa} \frac{x_{\text{ЭК}\kappa}}{Z_{\text{ЭК}}}, \quad (4)$$

бу ерда $Z_{\text{ЭК}} = R_{\text{ЭК}} + jx_{\text{ЭК}}$ – қўзғалувчан экраннинг актив ва тўла индуктив қаршиликларини ҳисобга олувчи тўла комплекс электр қаршилиги.

(3) ва (4) формулалар устида тегишли ўзгартиришларни бажаргандан сўнг қуйидаги кўринишдаги ифодаларга эга бўламиз:

$$I_{\kappa} = \frac{U_{\kappa}}{R_{\kappa} + R_{\text{ЭК}} \frac{x_{\text{ЭК}\kappa}^2}{R_{\text{ЭК}}^2 + x_{\text{ЭК}}^2} + j \left(x_{\kappa} - x_{\text{ЭК}} \frac{x_{\text{ЭК}\kappa}^2}{R_{\text{ЭК}}^2 + x_{\text{ЭК}}^2} \right)}, \quad (5)$$

$$I_{\text{ЭК}} = \frac{U_{\text{ЭК}0}}{R_{\text{ЭК}} + R_{\kappa} \frac{x_{\text{ЭК}\kappa}^2}{R_{\kappa}^2 + x_{\kappa}^2} + j \left(x_{\text{ЭК}} - x_{\kappa} \frac{x_{\text{ЭК}\kappa}^2}{R_{\kappa}^2 + x_{\kappa}^2} \right)}. \quad (6)$$

(5) тенгламадаги қўзғалувчан экран актив электр қаршилиги чексиз катта бўлган ҳолат учун (6) тенгламадаги кучланиш $U_{\text{ЭК}0}$ қуйидагича аниқланади:

$$U_{\text{ЭК}0} = -ji_{\kappa}x_{\text{ЭК}\kappa} = -j \frac{U_{\kappa}x_{\text{ЭК}\kappa}}{R_{\kappa} + jx_{\kappa}}, \quad (7)$$

бу ерда $Z_{\kappa} = R_{\kappa} + jx_{\kappa}$ – қўзғатиш чулғамининг актив ва тўла индуктив қаршиликларини ҳисобга олувчи тўла комплекс электр қаршилиги.

(5) ва (6) формулалар махражларидаги ифода контурнинг эквивалент қаршилиги деб аталади. Уларни мос равишда $Z_{\kappa, \text{Э}}$ ва $Z_{\text{ЭК}, \text{Э}}$ орқали ифодалаб, қуйидагиларни ҳосил қиламиз:

$$Z_{\kappa, \text{Э}} = R_{\kappa} + R_{\text{ЭК}} \frac{x_{\text{ЭК}\kappa}^2}{R_{\text{ЭК}}^2 + x_{\text{ЭК}}^2} + j \left(x_{\kappa} - x_{\text{ЭК}} \frac{x_{\text{ЭК}\kappa}^2}{R_{\text{ЭК}}^2 + x_{\text{ЭК}}^2} \right), \quad (8)$$

$$Z_{\text{ЭК}, \text{Э}} = R_{\text{ЭК}} + R_{\kappa} \frac{x_{\text{ЭК}\kappa}^2}{R_{\kappa}^2 + x_{\kappa}^2} + j \left(x_{\text{ЭК}} - x_{\kappa} \frac{x_{\text{ЭК}\kappa}^2}{R_{\kappa}^2 + x_{\kappa}^2} \right). \quad (9)$$

Сўнги ифодалардан маълумки, контурлар актив қаршиликлари ўзаро индукция ҳисобига қуйидаги катталикларга тенг миқдорга ошади:

$$R_{\text{кп}} = R_{\text{эк}} \frac{x_{\text{кэк}}^2}{R_{\text{эк}}^2 + x_{\text{эк}}^2}, \quad (10)$$

$$R_{\text{экп}} = R_{\text{к}} \frac{x_{\text{кэк}}^2}{R_{\text{к}}^2 + x_{\text{к}}^2}, \quad (11)$$

индуктив қаршиликлар эса қуйидаги катталикларга тенг миқдорга камаяди:

$$x_{\text{кп}} = x_{\text{эк}} \frac{x_{\text{кэк}}^2}{R_{\text{эк}}^2 + x_{\text{эк}}^2}, \quad (12)$$

$$x_{\text{экп}} = x_{\text{к}} \frac{x_{\text{кэк}}^2}{R_{\text{к}}^2 + x_{\text{к}}^2}, \quad (13)$$

$R_{\text{кп}}$, $R_{\text{экп}}$, ва $x_{\text{кп}}$, $x_{\text{экп}}$ – мос равишда келтирилган актив ва реактив қаршиликлар деб аталади.

Кучланиш режимида (5) ва (6) формулалар ёрдамида ўлчаш чулғами ва қўзғалувчан экрандаги $I_{\text{к}}$ ва $I_{\text{эк}}$ тоқларни аниқлаш мумкин бўлади. Тоқ режимида эса $I_{\text{к}}$ тоқ берилган бўлганлиги сабабли $U_{\text{к}}$ кучланиш ва $I_{\text{эк}}$ тоқнинг қийматларини аниқлаш лозим бўлади. $U_{\text{к}}$ кучланиш (3) формулага асосан қуйидагича аниқланади:

$$U_{\text{к}} = I_{\text{к}} [R_{\text{к}} + R_{\text{кп}} + j(x_{\text{к}} - x_{\text{кп}})]. \quad (14)$$

$I_{\text{эк}}$ тоқи эса (2) формуладан қўзғалувчан экран электр актив қаршилиги чексиз катта бўлган ҳолдага $I_{\text{к0}}$ тоқ орқали қуйидагича аниқланади:

$$I_{\text{эк}} = \frac{U_{\text{эк0}}}{R_{\text{эк}} + jx_{\text{эк}}} = -jI_{\text{к0}} \frac{x_{\text{кэк}}}{R_{\text{эк}} + jx_{\text{эк}}}. \quad (15)$$

(6) ва (15) формулаларни таққослаш орқали тоқ режимида қўзғалувчан экран актив ва реактив электр қаршиликларининг қиймати ўзгармасдан қолишини кўришимиз мумкин. (4) формулани бир неча ўзгартиришлардан сўнг қуйидаги кўринишда ёзиш мумкин:

$$I_{\text{эк}} = -I_{\text{к}} \frac{x_{\text{кэк}}}{x_{\text{экп}}} \cdot \frac{1}{\sigma_{\text{эк}} e^{j\theta_2}} = -I_{\text{к}} \frac{w_{\text{к}} e^{-j\theta_2}}{w_{\text{эк}} \sigma_{\text{эк}}}, \quad (14a)$$

бу ерда $x_{\text{экп}} = \frac{w_{\text{эк}}}{w_{\text{к}}} x_{\text{кэк}}$ – қўзғалувчан экран асосий индуктив қаршилиги; $\sigma_{\text{эк}} = \frac{Z_{\text{экп}}}{x_{\text{экп}}}$ – қўзғалувчан экран сочилиш коэффициенти; $Z_{\text{экп}} = \sqrt{R_{\text{эк}}^2 + x_{\text{эк}}^2}$ ва $\theta_2 = \arctg \frac{R_{\text{эк}}}{x_{\text{эк}}}$ – мос равишда қўзғалувчан экран тўла қаршилигининг модули ва аргументи; $x_{\text{экс}} = x_{\text{эк}} - x_{\text{экп}}$ – қўзғалувчан экран сочилма индуктив қаршилиги.

(7) формулага асосан қўзғалувчан экран актив қаршилиги чексиз катта бўлган ҳолат учун ундаги кучланиш қуйидагича аниқланади:

$$U_{\text{ЭК0}} = -U_{\text{К}} \frac{x_{\text{КЭК}}}{x_{\text{КМ}}} \cdot \frac{1}{\sigma_{\text{К}} e^{j\theta_1}} = -U_{\text{К}} \frac{w_{\text{ЭК}}}{w_{\text{К}}} \cdot \frac{e^{-j\theta_1}}{\sigma_{\text{К}}}, \quad (7a)$$

бу ерда $x_{\text{КМ}} = \frac{w_{\text{К}}}{w_{\text{ЭК}}} x_{\text{КЭК}}$ – қўзғатиш чулғами асосий индуктив қаршилиги; $\sigma_{\text{К}} = \frac{Z_{\text{КМ}}}{x_{\text{КМ}}}$ – қўзғатиш чулғами сочилиш коэффициенти; $Z_{\text{КМ}} = \sqrt{R_{\text{К}}^2 + x_{\text{К}}^2}$ ва $\theta_1 = \arctg \frac{R_{\text{К}}}{x_{\text{К}}}$ – мос равишда қўзғатиш чулғами тўла қаршилигининг модули ва аргументи; $x_{\text{КС}} = x_{\text{К}} - x_{\text{КМ}}$ – қўзғатиш чулғами сочилма индуктив қаршилиги.

(4a) ва (7a) формулалар орқали берилган шарт бўйича $\sigma_{\text{ЭК}} = 1$, (яъни $R_{\text{ЭК}} = x_{\text{ЭКС}} = 0$) ва $\sigma_{\text{К}} = 1$ (яъни $R_{\text{К}} = x_{\text{КС}} = 0$) бўлган ҳолатлар учун қуйидаги кенг тарқалган муносабатларни келтириб чиқариш мумкин:

$$I_{\text{ЭК}} = -I_{\text{К}} \frac{w_{\text{К}}}{w_{\text{ЭК}}}; \quad U_{\text{ЭК0}} = -U_{\text{К}} \frac{w_{\text{ЭК}}}{w_{\text{К}}}.$$

Ток ифодасидан фойдаланиб, қўзғатиш чулғами ва қўзғалувчан экран магнитловчи кучи тенгламаларини аниқлаймиз:

$$F_{\text{К}} = I_{\text{К}} w_{\text{К}} = \frac{U_{\text{К}} w_{\text{К}}}{R_{\text{К}} + R_{\text{КП}} + j(x_{\text{К}} - x_{\text{КП}})}; \quad (16)$$

$$F_{\text{ЭК}} = I_{\text{ЭК}} w_{\text{ЭК}} = -jF_{\text{К}} \frac{x_{\text{ЭКМ}}}{R_{\text{ЭК}} + jx_{\text{ЭК}}}. \quad (17)$$

(17) ифода умумий ҳолатлар учун ўринли ҳисобланади. Ушбу формуладан ток ва кучланиш режимлари учун қўзғалувчан экран магнитловчи куч тенгламалари қуйидагича аниқланади:


$$F_{\text{ЭК}} = -jF_{\text{К0}} \frac{x_{\text{ЭКМ}}}{R_{\text{ЭК}} + jx_{\text{ЭК}}}; \quad (18)$$

$$F_{\text{ЭК}} = -jF_{\text{К0}} \frac{x_{\text{ЭКМ}}}{R_{\text{К}} + R_{\text{КП}} + j(x_{\text{К}} - x_{\text{КП}})}. \quad (19)$$

Қўзғатиш чулғамининг магнитловчи кучи тенграмаси қўзғалувчан экран токи нолга тенг бўлган ҳолат учун қуйидагича аниқланади:

$$F_{\text{К}} = I_{\text{К0}} w_{\text{К}} = \frac{U_{\text{К}} w_{\text{К}}}{R_{\text{К}} + jx_{\text{К}}}. \quad (20)$$

2 - расмда қўзғатиш чулғам ва қўзғалувчан экран ток ва кучланишлар вектор диаграммаси келтирилган.



2-расм. Қўзғалувчан электромагнит экранли занжир вектор диаграммаси

(5) ва (6) ток формулалари ва вектор диаграммаси асосида фаза силжиш бурчаклари қуйидагича аниқланади:

$$\varphi_k = \arctg \frac{x_k - x_{кп}}{R_k + R_{кп}}; \quad (21)$$

$$\varphi_{Эк} = \arctg \frac{x_{Эк} - x_{Экп}}{R_{Эк} + R_{Экп}}; \quad (22)$$

$$\psi_0 = 90^\circ + \varphi_{Эк}; \quad (23)$$

$$\psi = 90^\circ + \arctg \frac{x_{Эк}}{R_{Эк}}; \quad (24)$$

$$\theta = \psi - \psi_0, \quad (25)$$

ёки

$$\varphi = \arctg \frac{R_{Эк}(x_{Эк} - x_{Экп}) + (R_{Эк} + R_{Экп})x_{Эк}}{R_{Эк}(R_{Эк} + R_{Экп}) + (x_{Эк} - x_{Экп})x_{Эк}}. \quad (26)$$

Ушбу ҳосил қилинган тенгламалар таҳлилидан шуни хулоса қилиш мумкинки, ток режимида қўзғалувчан экраннинг қўзғатиш контурига таъсири қўзғатиш чулғами токи ёрдамида компенсацияланмайди.

<p>Saydaliyeva Muhayyo Djo'rayevna Raimbekova Madina Mirzohid qizi <i>Toshkent shahar Yunusobod tumani</i> <i>560-DKTIMMT tarbiyachilari</i></p> <p>Salixova Nozima Shavkatovna <i>Toshkent pedagogika kolleji talabasi</i></p> <p style="text-align: center;">INKLYUZIV TA'LIMNING NAZARIY ASOSLARI</p>	<p><i>Elektron pochta manzili:</i></p>
--	--

Annotatsiya: *ushbu maqolada inklyuziv ta'lim, inklyuziv ta'lim madaniyati, maqsad va vazifalari, uning muammolari, prinsiplari, inklyuziv ta'limga kiritishning asosiy tamoyillari, inklyuziv ta'limga jalb etiladigan bolalar hamda samarali inklyuziya haqida so'z boradi.*

Tayanch tushunchalar:
Maxsus ta'lim, nogiron shaxs, integratsiya, rehabilitatsiya. inklyuziv ta'lim, imkoniyati cheklangan bolalar, korreksiya, tamoyillar.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI:

1. R. Sh. Shomaxmudova. "Maxsus va inklyuziv ta'lim" uslubiy qo'llanma. Toshkent-2011 yil.

QO'SHIMCHA ADABIYOTLAR:

1. L.R.Muminova. Inklyuziv ta'lim. Toshkent- 2014 yil.
2. Ture Yonsson. Inklyuziv ta'lim. Toshkent -2003.

Inklyuziv ta'lim (ingliz tilidan olingan bo'lib, inclusive, inclusion– uyg'unlashmoq, uyg'unlashtirish, qamrab olmoq, qamrab olish ma'nolarini bildiradi) nogiron va sog'lom bolalar o'rtasidagi **to'siqlarni (diskriminatsiyani)** bartaraf etish, maxsus ta'limga muxtoj bolalar, (ayrim sabablarga ko'ra nogiron bo'lgan) o'smirlar rivojlanishida uchraydigan nuqsonlar yoki iktisodiy qiyinchiliklardan qat'iy nazar ijtimoiy hayotga moslashtirishga yo'naltirilgan umumta'lim jarayoniga qo'shishni ifodalovchi ta'lim tizimidir.

Sharqning mashxur allomalari Ibn Sino, Imom Buxoriy, Abu Nasr Farobiy, Alisher Navoiy, Abdulla Avloniylarning tarbiyaning maqsadlari har bir bola shaxsining rivojlanishiga ta'limning ta'siri to'g'risidagi qarashlari inklyuziv talim rivojlanishining metodologik bazasi xisoblanadi.

Inklyuziv ta'lim har xil extiyojli bolalarning ta'lim olishiga qaratilgan metodologiyani rivojlantirishga xarakter qiladi. Inklyuziv ta'lim turli extiyojlarni qondirishga qaratilgan ixcham turdagi dars berishga yondashadigan ta'limni ishlab chiqishni amalga oshiradi. Agarda inklyuziv ta'limni tadbiiq etishda dars berish,

o'qitish bir muncha samarali va unumli bo'lsa unda nafaqat imkoniyati cheklangan bolalar balki barcha bolalar yutadi. Inklyuziv ta'lim maktablari bolalarning bilim olish uchun shaxsiy huquqlarini himoyalaydi (vaholangki ular uqitilmasa ham). Bunday yondashuv diskriminatsiyani bartaraf etadi, kamaytiradi chunki bolalar bir-birlari bilan muloqot qilish jarayonida o'zlarining o'qitilish jarayonida turli extiyojlarga ega individum ekanliklarini anglaydilar.

Imkoniyati cheklangan bolalar ta'lim - tarbiyasi masalasi bugungi kunda eng dolzarb masalalar sirasiga aylanib bormoqda. Maxsus ta'lim, imkoniyati cheklangan bolalar uchun ta'lim tizimi sifatida rivojlangan. Ushbu ta'lim imkoniyati cheklangan bolalarning extiyojlarini umumta'lim muassasalarida qondirib bo'lmaydi degan taxminlar asosida qurilgan. Maxsus ta'lim butun dunyoda maktab yoki internat shaklida, shuningdek umumta'lim maktablarining katta bo'lmagan qismlari sifatida faoliyat yuritadi.

Imkoniyati cheklangan bolalarning maxsus ta'lim tizimida o'qitilishi ularning maktabni tugatgach ijtimoiy jamiyatga moslashib ketishlarini qiyinlashtiradi. Shuningdek, ularning o'z oilasidan uzoq bo'lishga majbur qiladi. Bu toifa bolalar boqimandalikk o'rganib qoladilar, o'z - o'ziga xizmat qilishlarida qiyinchiliklarga duch keladilar. Bundan tashqari juda ko'plab maxsus extiyojli bolalar ta'limdan chetda qolib ketmoqdalar. Hozirgi kunda Respublikamizda alohida yordamga muhtoj bolalarning rivojlanish darajasi, imkoniyati, nuqson xususiyatlari va qobiliyatlariga ko'ra maxsus yoki umumta'lim tizimida ta'lim olishini amalga oshirish maqsadida inklyuziv ta'lim siyosati amalga oshirilmoqda.

Inklyuziv ta'lim madaniyati!

"Salamanka deklaratsiyasiga muvofiq xar bir o'quvchining tafovut, xususiyatlarini qo'llab quvvatlovchi va ma'qullovchi isloxot sifatida qarashadi. Uning maqsadlari, jinsi, irqi, madaniyati, ijtimoiy millati, dini, individual imkoniyat va qobiliyatidagi tafovutlar oqibatida yuzaga keladigan ijtimoiy segregatsiyaga yo'l qo'ymaslik. Biroq bu konsepsiya universal foydalanish uchun yaroqsiz bo'lib chiqdi. Dunyo bo'yicha maktablarda inklyuzivga ko'pincha umumta'lim maktablarida nogironlarni o'zlarining tengdoshlari bilan birga ta'lim olish deb qaraladi" (Judi Kugelmas).

Biroq inklyuziv ta'limning mazmun - mohiyati to'g'risidagi bilim va ma'lumotlar hali jamiyatda yetarli emas.

Inklyuziv ta'limning maqsad va vazifalari:

Inklyuziv ta'lim tizimida quyidagi maqsad va vazifalarning hal etilishi talab etiladi:

- ta'lim muassasasida imkoniyati cheklangan bolalar va o'smirlarning ta'lim olishlari uchun zaruriy psixologo - pedagogik, korreksion sharoitlarni yaratish, ularning imkoniyatiga yo'naltirilgan umumta'lim dasturlari va korreksion ishlarni amalga oshirish orqali ruhiy rivojlanishi, ijtimoiy moslashtirishni amalga oshirish;
- o'quvchilarning ta'limdagi tenglik xuquqini kafolatlash;
- jamiyatning va oilaning faol ishtirokida nogiron va sog'lom bolalarning extiyojlarini qondirish, ijtimoiy xayotga erta moslashtirish;
- imkoniyati cheklangan bolalar va o'smirlarni oilalardan ajramagan holda yashash xuquqini ro'yobga chiqarish;
- jamiyatda imkoniyatti cheklangan bolalar va o'smirlarga nisbatan do'stona va mexr-muxabbatli munosabatni shakllantirishdir.

Yuqoridagi vazifalarni tulaqonli amalga oshirishda eng birinchi galda kuyidagilarga e'tibor qaratish lozim:

lisonparvarlik nuktai nazaridan imkoniyati quyidagi bolalarni quyidagi atamalar bilan nomlang	Tushunchaning izoxi
Imkoniyati cheklangan bola	Umumiy tushuncha bo'lib, barcha turdagi imkoniyati cheklangan bolalarga nisbatan ishlatiladi
Maxsus yordamga muxtoj bola	Umumiy tushuncha bo'lib, barcha turdagi imkoniyati cheklangan bolalarga nisbatan ishlatiladi
Maxsus extiyojli bola	Umumiy tushuncha bo'lib, barcha turdagi imkoniyati cheklangan bolalarga nisbatan ishlatiladi
Aqliy rivojlanishida muammosi bo'lgan bola	Bosh miyaning organik jaroxatlanishi natijasida aqliy rivojlanishi turgun buzilgan bolalar
Ko'rishda muammosi bo'lgan bola	Ko'rish qobiliyati, ko'rish o'tkirligi qisman buzilgan yoki keskin pasaygan-ko'zi ojiz yoki zaif ko'rivchi bolalar
Xarakatlanishida muammosi bo'lgan bola	Tayanch xarakat a'zolari faoliyatida buzilishlar bo'lgan bolalar
Eshitishida mummosi bo'lgan bola	Eshitish qobiliyati qisman yoki keskin pasaygan-zaif eshituvchi xamda

Imkoniyati cheklangan bola ham barcha bolalardek bola hisoblanadi va u tan olinishi, hurmatga sazovor bo'lishiga haqli, shuning uchun ularni nuqsoni bilan atalishi nomaqbul hisoblanadi.

Bola, u qanday xolatda va qanday imkoniyatga ega bulishidan qat'iy nazar xar doim kattalar yordamiga muxtojdir. Uni ajratish yoki aloxida nom bilan atash insonparvarlik nuqtai nazariga tugri kelmaydi. Agar imkoniyati cheklangan bolalarga nisbatan «anomal bolalar», «nogiron bolalar», «ko'r bolalar», «kar bolalar», «aqli zaif bolalar», «xarakat tayanch a'zolari falajlangan bolalar» va x. k. tushunchalar ishlatilib kelindi. Ammo ushbu tushunchalar mkoniyati cheklangan bolalarni xuquqlarini poymol kiladi. Ota-onalarga xam salbiy ta'sir etadi. Imkoniyati cheklangan bolalar me'yorda rivojlanishdagi bolalar kabi topshiriq va vazifalarni tezlik bilan mukammal amalga oshira olmasalarda, ammo imkoniyat darajasida bajara oladilar. Bolaning xukuklarini ximoya kilish, ularga ijobiy munosabatda bo'lish tarbiyalashning muxim usulidir. Shuning uchun xam taxkirlashlarga yul kuymaslik talab etiladi.

Inklyuziv ta'limning muammolari.

1. Ko'plab davlatlarda inklyuziv ta'limni joriy etish bo'yicha davlat normativ xujjatlarida qayd qilinmaganligi;
2. Nogiron bolalarga nisbattan salbiy munosabat;
3. Imkoniyati cheklangan bolalarning hamjamiyatda ko'rinmaslik muammosi;
4. Imkoniyati cheklangan bolalarning maktabda ko'rinmaslik muammosi;
5. Moddiy mablag' muammolari;
6. Ta'lim muassasalarini moslashtirish;
7. Sinfda o'quvchilar sonining ko'pligi;
8. Kambag'allik;
9. Jinsiy tafovutlarga qarab kamsitish;
10. Imkoniyati cheklangan bolalarning boshqalarga qaramligi;
11. Favqulodda vaziyatlar, mojarolar, qochoqlar;
12. Kadrlar masalasidagi muammolar.

Haqli savol tug'iladi, nima uchun imkoniyati cheklangan bolalarni inklyuziv ta'lim tizimiga jalb etish kerak?

Yuqorida keltirilgan dalillarni hal etib inklyuziv ta'lim tizimiga o'tishga qanday zaruriyat bor?

Darhaqiqat, bu ta'lim tizimi oldidagi muammolarni hal etish oson kechmaydi. Ammo bu ta'lim tizimining nafli jihati juda ko'p ular sirasiga qo'yidagilar kiradi:

- Inklyuziv ta'lim qashshoqlik iskanjasidan qutilishga imkon beradi;
- Inklyuziv ta'lim barcha uchun ta'lim sifatini yaxshilaydi;
- Kamsitishlarni oldini oladi;
- Inklyuziv ta'lim yanada inklyuzivlikka olib keladi. (Maktablar hamma uchun –

Save the children – 2002y. 20\23 bet.)

Inklyuziv ta'limning prinsiplari:

1. Insonning qadr qimmat, uning qobiliyati va yutug'iga bog'liq emas.
2. Har bir inson o'ylash va xis qilish qobiliyatiga ega.
3. Har bir kishi eshitish va muloqot qilish qobiliyatiga ega.
4. Har bir kishi bir\biriga muxtoj.
5. Shaxsning to'liq va haqiqiy ta'lim olishi faqat real hamkorlikda amalga oshadi.
6. Hamma kishilar o'z tengdoshlarini qo'llab quvvatlashga muxtoj.
7. Hamma ta'lim oluvchilarni yutuqqa erishishiga ularning nimadir qila olmasligi emas, balki nimanidir qila olishidir.
8. Hamkorlik qilish kishi hayotini har tomonlama kuchaytiradi.

Inklyuziv ta'lim tizimi qo'yidagi ta'lim muassasalarni o'z ichiga oladi; maktabgacha umuta'lim, umumo'rta ta'lim, o'rta maxsus kasb-xunar va oliy ta'lim. Bu ta'lim muassasalarning maqsadi bolalarning ta'lim olishi va kasb-xunarga tayyorlashda ularning o'rtasidagi to'siqlikni bartaraf etib ochiq ta'lim muxitini yaratishdan iborat.

Umumta'lim maktablarda alohida dastur va darsliklardan foydalanish imkoniyati bo'lmaydi. Inklyuziv ta'lim tizimi integratsiyalashgan ta'lim tizimidan uzinig mazmun – moxiyati, maqsadi, vazifalari va xarakat dasturi bilan farqlanadi.

Maxsus inklyuziv ta'lim samarali inklyuziv ta'limni qo'llab-quvvatlash uchun aniq ma'lumotlarni tadqiq etish davomidagi aniqlangan mustahkam asoslarni amaliyotga tadbiiq etishni o'z ichiga oladi. Salend va Uittaker (2012) tomonidan shunday metodlari turlari aniqlangan:

- Farqlar va turlarni tan olishga ta'sir o'tkazish.
- Kompetansiyani rivojlantirishga tayangan kuchli tomonlariga asoslangan yondashuvni belgilash.
- O'quvchilarning kuchli tomonlari va muammolari ustida diqqatni to'plash uchun

- TIR (ta'limning individual rejasi) dan foydalanish.
 - Tadbirlarni tashkil etish uchun tizimlarga aralashuvda javoblardan foydalanish.
 - Differensial ta'limga o'qitish uchun universal dizayndan foydalanish.
 - Xulq-atvorni boshqarishni qo'llab-quvvatlash uchun va hatti-harakat sababli ijobiy tarzda aralashuvdan foydalanish.
 - Progressni (yuksalishni) monitoring qilish va ta'limni axborotlashtirish uchun turli baholash strategiyalaridan foydalanish.
 - Ta'lim jarayonini yengillatish uchun turli yordamchi va tarbiyaviy texnologiyalardan foydalanish.
 - Metakognitiv strategiya kabi ta'limning samarali yondashuvlaridan foydalanish uchun o'quvchilarga ta'lim berish.
 - Madaniy dolzarb va mos keluvchi tadbir va jarayonlarni ta'minlash.
- Bolalarning ota-onalari bilan yaqin hamkorlikda hamkorlik olib borish uchun mutaxassislarni yuborish.

Tamoyillar: Inklyuziv ta'limga kiritishning asosiy tamoyillari

Ta'lim tizimini joriy etish har doim ma'lum bir qonun qoidalarga, tamoyillarga asoslanishni talab etadi. Inklyuziv ta'lim tizimini joriy qilishda esa quyidagi tamoyillarga asoslaniladi:

- 1). Inklyuziv ta'limning e'tirof etilishi.
- 2). Inklyuziv ta'limning barcha uchun ochiq bo'lishi tamoyili.
- 3). Bog'lanishning mavjud bo'lishi tamoyili.
- 4). Markazlashtirilmagan bo'lishi tamoyili.
- 5). Inklyuziv ta'limda kompleks yondashishi tamoyili.
- 6). Inklyuziv ta'limda moslashuvchanlik tamoyili.
- 7). Malakaviylik tamoyili.

1). Inklyuziv ta'limning e'tirof etilishi tamoyili

Bu tamoyilning mazmuni shundaki, 1990 yildan buyon maxsus ehtiyojli bolalrni umumta'lim muassasalari tizimida o'qitish borasida bir qancha jahon miqiyosida deklaratsiyalar va qarorlar qabul qilindi. Ularni jahonning ko'plab davlatlari e'tirof etdilar. Ammo bugungi kunga qadar ularni hayotga joriy qilish borasida ko'plab muammolar mavjud. Ba'zi davlatlarda esa umumiy ta'lim borasida qonun yoki qarorlar qabul qilinganda nogiron bolalarning ta'lim masalasi unga kiritilmaydi. Ammo inklyuziv ta'limni tan olish faqatgina qonun chiqarish bilangina bog'liq bo'lmaydi. Diskriminatsiya (odamlarni ajratish) va ijtimoiy noto'g'ri fikrlashga qarshi

kurashish eng muhim narsadir. Ya'ni inklyuziv ta'limni e'tirof etgan holda, aholi o'rtasida targ'ibat-tashviqot ishlarini olib borish eng birinchi galdagi masaladir.

2). Inklyuziv ta'limning barcha uchun ochiq bo'lishi tamoyili

O'tgan yigirma yil davomida maxsus ehtiyojli bolalrni umumta'lim muassasalari tizimida o'qitish borasida sezilarli ishlar amalga oshirildi. Ammo inklyuziv ta'limi tizimini joriy qilish asosan shaharlar miqiyosida bo'lib qishloqlardagi hududlarda hali-hamon maxsus ehtiyojli bolalar ta'limdan chetda qolib ketmoqda yoki qishloqlardagi ota-onalar nogiron farzandini shaharlardagi maxsus muassasalarga qatnashlarini ta'minlash uchun qiyinchiliklarga duch kelmoqdalar. Shuning uchun ham maxsus ehtiyojli bolalarni inklyuziv ta'limga jalb etish barcha hududlarda barcha maxsus ehtiyojli bolalarni qamrab olgan bo'lishi ta'minlanishi lozim.

3). Bog'lanishning mavjud bo'lishi tamoyili

"Bog'lanish"-bu so'zning zaminida-ommaviy binolarning sifati, ayniqsa nogiron bolalar uchun maktablarga kirishning oson bo'lishi kabilar yotadi. Bola maktab binosiga (zinapoyalar aravachada yurishga moslashtirilmaganligi sababli) kira olmaganmi yoki maktab xojatxonasi aravachada harakatlanuvchilarga moslashtirilmaganligi uchun oddiy maktabdan chiqarib tashlamasligi kerak. Bu kabi qulayliklarni yaratish unchalik katta mablag' talab qilmaydi. Yangi maktab binosi nogiron bolalarning ehtiyojlarini e'tiborga olgan holda rejalashtirilgan paytdan boshlab qurilishi kerak. Alatta nogiron bolalar uchun yaxshi bo'lgan qulayliklar normal rivojlanishdagi bolalar uchun hech bir muammo keltirib chiqarmaydi. Jismonan bog'lanishlarni yaratish inklyuziv ta'limning asosiy muammolarini hal etishga xizmat qiladi.

4). Markazlashtirilmagan bo'lishi tamoyili

Bu tamoilning mazmuni quyidagi ikkita aspekt yordamida ifodalanadi:

A). Inaklyuziv ta'lim xizmatlari umumiy ta'lim tizimining integratsiya qilingan qismi bo'lishi kerak.

B). Inklyuziv ta'lim tizimidgi vazifalar mahalliy ta'lim organlariga jaqvobgarlik va boshqaruvni yuklash uchun markazlashmagan holda olib borilishi kerak va imkoniyatlar mahalliy sharoitlarga moslashtirilishi lozim.

Optimal integratsiya erishish uchun markazlashtirilmagan bo'lish muhimdir. Bu ayniqsa qishloq sharoitlarida ayni muddao bo'ladi. Inklyuziv ta'limning vazifalari nogiron bolalarga o'z ota-onalari bilan birga bo'lish, ularga xuddi tengdoshlari kabi o'zlariga yaqin bo'lgan maktablarda ta'lim olish imkonini beradi. Bu ularning shaxsiy sifatlarining shakllanishida muhim ahamiyatga ega. Nogiron bolaning normal

rivojlanishiga halaqil berish, nogironlikdan ham og'irroq holatlarga olib kelishi mumkin.

5). Inklyuziv ta'limda kompleks yondashishi tamoyili

Nogiron bolalarga ularga nogiron deb faqatgina nuqson jihatdan yondashishi emas, balki bu bolalarga har tomonlama yondashish lozim. Bu esa maxsus ehtiyojli bolalar uchun ta'lim masalasini rejalashtirayotgan uning butun hayoti davomida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan ehtiyojini hisobga olgan holda tuzishni talab etadi. Bundan tashqari inklyuziv ta'limda nogiron boladagi mavjud nuqsonlarni bartaraf etish, korreksiyalash, kompensatsiya qilish bilan bir qatorda bilim ko'nikmalarga ega qilish, kasb hunarga o'rgatish ishlarini parallel ravishda olib borish talab etiladi. Bu tamoyilning mohiyatida maxsus ehtiyojli bolalarga ilk yosh davrida erta yondashish ham yotadi. Maxsus ehtiyojli bolalar ta'limi boshlang'ich va o'rta-maxsus ta'limni olishlari bilan yakunlanmasligi kerak. Nogiron bolalarning kasb-hunar ta'limi va oliy ta'limi ham amalga oshirilishi ta'lab etadi. Chunki inklyuziv ta'lim tizimining vazifalaridan biri maxsus ehtiyojli bolalarni har tomonlama rivojlantirish, ularning barcha huquqlarini ta'minlashdan iboratdir.

6). Inklyuziv ta'limda moslashuvchanlik tamoyili

Bu tamoyilning mazmuni shundaki, o'quv reja, dastur va darsliklar maxsus ehtiyojli bolalarning imkoniyatlariga moslashuvchan bo'lishi kerak. Bolaning maxsus ta'limga bo'lgan ehtiyojlari har qanday integratsiya faoliyatining asosini tashkil etishi kerak. Shaxs ehtiyojlarining darajalari va turlari har xil bo'lganligi tufayli bunday faoliyatlar moslashuvchan o'zgaruvchan bo'lishi talab etiladi.

7). Malakaviylik tamoyili

Maxsus ehtiyojli bolalar inklyuziv tarzda o'qitilayotgan sinflarda yuhori malakali o'qituvchilarning dars berishi talab etiladi. Bundan tashqari inklyuziv sinf o'qituvchisi defektlogiya sohasi bo'yicha ham malaka oshirgan bo'lishi kerak.

Inklyuziv ta'lim joriy qilingan maktablarda (muassasalarda) ta'lim jarayonini tashkil etish tamoyillari.

- Maxsus ta'lim tamoyillari:
- Korreksion yo'naltirilganligi;
- Nuqsonini aniqlash, ta'lim berishda kompleks (klinik-genetik, neyrofiziologik, psixolog\pedagogik) yondoshish;
- Nuqsonli funksiyani erta aniqlab, tibbiy\psixologik jixatdan korreksiyalash;
- Umumiy o'rta ma'lumot berish, kasbga yunaltirish va ijtimoiy hayotga tayyorlashga moslashtirish;

- Differensial-tabaqalashtirish va oloxida yondoshish;
- Ta'limning uzliksizligini ta'minlash.

Inklyuziv ta'limga jalb etiladigan bolalar:

- Ruxiy rivojlanishi sustlashgan bolalar;
- Harakat muaozanati buzilgan;
- O'z-o'ziga xizmat qila oladigan debillik darajasidagi oligofren bolalar va

o'smirlar:

- Nutqida nuqsoni bo'lgan (muloqoti cheklanmaydigan darajadagi)

bolalar:

- Zaif ko'ruvchi bolalar va o'smirlar:
- Zaif eshituvchi va kech (5 yoshdan keyin) kar bo'lgan bolalar:
- Ko'zi ojiz (brayl yozuvi va o'qishni egallagan) bolalar va o'smirlar:
- Zaif ko'ruvchi ko'rish qobiliyati (04darajagacha) bo'lgan bolalar:
- Kar (muloqot darajasida nutqi bo'lgan, o'qish va yozishni egallagan)

bolalar va o'smirlar.

Inklyuziv ta'lim metodik yordam turi, turli xil shakllarda bo'lib, ular quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- sinf o'qituvchisiga maslaxat va yordam berish;
- maxsus ukitish kullanmalari va yordamchi materiallar bilan ta'minlash;
- ota – onalar, kungillilar yoki katta o'qituvchilar tomonidan mavjud bo'lgan yordamlarni ta'minlash;

- o'quv reja dars jadvali, baxolash mezolariga moslashtirish va o'zgarishlar bilan tanishtirish;

- o'qituvchilar bilim va malakalarini oshirish uchun sharoit yaratish;

- faol qo'llab – quvvatlovchi raxbar va shu kabilarni uz imkoniyati cheklanganiga olgan ijobiy maktab muxitini tashkil etish va ta'lim jarayonida do'stona munosabatni shakllantirish;

- ma'muriyatga bolalarning aniqlash va baxolashda yordam ko'rsatish;

- ijtimoiy psixologik va sog'liqni saqlash xizmatlarini muvofiqlashtirish kabi ishlarni amalga oshirishdan iborat.

Inklyuziv ta'limda alohida extiyojli bolalarga ta'lim tarbiya berish bolaning nuqson turiga ko'ra sinfni va dars jarayoinin moslashtirishni talab etadi.

Inklyuziv ta'lim tizimida o'quv-tarbiya jarayonining tashkil etilishi:

• Inklyuziv ta'lim tashkil etilgan barcha umumta'lim maktablarda imkoniyati cheklangan bolalar va o'smirlarga nisbatdan do'stona munosabat ruxiy shakllanadi.

• Inklyuziv ta'limni amalga oshirayotgan umumta'lim maktablarida davlat ta'lim standartlariga ilova sifatida imkoniyati cheklangan bolalar va o'smirlar uchun korreksion dasturlar ham inobatga olinadi, maxsus korreksion ishlarni amalga oshirish uchun shart\sharoitlar yaratiladi (maxsus jixozlangan korreksion xonasi, maxsus texnik vositalar).

• Inklyuziv ta'limni amalga oshirayotgan umumtalim maktablarida tayyorlov guruh va birinchi sinflarda 35 daqiqa, yuqori sinflarda 45 daqiqadan darslar olib boriladi.

• Imkoniyati cheklangan bolalar va o'smirlarning bilimlari ularning shaxsiy xususiyatlari va qobiliyatlariga asoslangan holda belgilangan tartibda baxolanadi.

• Ta'lim jarayonida zamonaviy umumdidaktik tamoyillar bilan bir qatorda maxsus tamoyillar ham e'tiborga olinadi.

• Korreksion ta'lim o'quvchilarning extiyojlariga ko'ra tabaqalashtirilgan holda tashkil etiladi.

• Inklyuziv ta'lim amalga oshirayotgan umumta'lim maktabiga o'quvchilar otionalarning arizasi hamda "psixologo\pedagogik komissiya"lar xulosalari asosida qabul qilinadi va ta'lim muassasalarining rahbarlarining buyrug'lari bilan tasdiqlanadi.

Inklyuziv ta'lim amalga oshirayotgan umumta'lim maktabdagi sinflarda integratsiya qilingan o'quvchilar soni 3-4 nafardan oshirilmaydi hamda o'quvchilarning umumiy soni 25 nafargacha belgilanadi

«**Inklyuziv**» va «**integratsiyalashgan**» atamaları ko'pincha bir xil ma'noda ishlatiladi. Biroq falsafada ushbu tushunchalar orasida juda katta farq bor. Nogiron bolani oddiy sharoitga joylashtirish integratsiyaga qarab qo'yilgan birinchi qadamdir. Imkoniyati cheklangan bolalarning umumta'lim muassasalari tarkibiga qamrab olinishi jahon miqyosida "**inklyuziv**" yoki "**integratsion**" ta'lim atamaları bilan ataladi.

"**Integratsiya**" atamasini aniqlash maqsadida ushbu tushunchaning ta'rifini bergan G.M.Kajdasparovning "Pedagogicheskiy slovar" lug'atiga murojaat qilamiz. Unda "guruxlar integratsiyasiga", "guruxda shaxslar aro munosabatlarni tartibga solish" sifatida qaraladi shuningdek, jamoada faqatgina insonparvrlik munosabatlarni va mazkur guruxda ijobiy jamoatchilik fikrini yaratilishi bilan integratsiyani amalga tadbiiq etish mumkin deb ta'kidlanadi. Keyingi yillarda imkoniyati cheklangan bolalarni barcha tengdoshlari qatori umumta'lim tizimida ta'lim olishiga jiddiy e'tibor berilmokda va inklyuziv ta'lim matbuot axborot vositalari

orkali ommaga keng targ'ibot qilinmoqda. Bu borada ota-onalar xam farzandlarini umumta'lim tizimidagi integratsiyalashgan va inklyuziv gurux va sinflarda ta'lim - tarbiya olishiga o'z istaklarini bildirishmokka.

Integratsiyalashgan ta'lim bu, - diqqat markazida bolaning aynan maktabga kelib- ketish muammosi turgan, maxsus ehtiyojli bolaning maktabga qatnash jarayonidir.

Integratsiyalashgan ta'limda bolaga muammo sifatida qaraladi. Bu ta'lim tizimining quyidagicha shakllari mavjud:

- **A)Jismoniy integratsiya.** Integratsiyaning bu shakli nogiron va nogiron bo'lmagan bolalar o'rtasidagi jismoniy farkni kamaytirishga qaratilgan. Oddiy maktab bilan yonma-yon joyda nogiron bolalar uchun maxsus bo'lim yoki sinf tashkil qilish mumkin.

- **Funksional integratsiya.** Bu shakl nogiron va nogiron bo'lmagan bolalar o'rtasidagi funksional muammolarni kamaytirishga qaratilgan.

- **Ijtimoiy integratsiya.** Integratsiyaning bu shakli ijtimoiy muammolarni kamaytirishga qaratilgan va u nogiron hamda nogiron bo'lmagan bolalar o'rtasidagi o'zaro aloqani qo'llab – quvvatlaydi.

- **Jamiyatga integratsiya qilish** kabilar.

Samarali inklyuziya barcha o'quvchilarni ularning qobiliyati, irqi, lingvistik qobiliyati, iqtisodiy, etnik, madaniy va diniy qarashlari, jinsi, o'quv materialini o'zlashtirish uslubi, diniy e'tiqodi, oila tuzilishidan qat'iy nazar umumiy ta'lim tizimi sinflariga joylashtirilgan holda o'qitish tizimini takomillashtirib boradi. Inklyuziv dasturlar barcha o'quvchilarga rag'batlantiruvchi, qiziktiruvchi va ularga moslashuvchi o'quv rejasiga kirish imkonini beradi va bu bilan ularni jamiyatda muvaffaqiyatga erishishlariga yordam beradi. (Fisher va Frey, 2001; Rouch, Selisbyuri va Mak gregor 2002). O'quvchilar bir vaqtning o'zida qo'p tabaqali va kombinatsiyalashtirilgan o'quv dasturida ishlaydilar. Bu dasturlar ularning bir vaqtning o'zida ham ta'limiy, ham ijtimoiy malakalarini ehtiyojlari va imkoniyatlariga mos ravishda rivojlantirishga qaratiladi. Inklyuziv maktablar *barcha o'quvchilarni o'z tengqurlari ichida mahalliy maktablarda ta'limini ta'minlagan holda buni qo'llab-quvvatlaydilar, tan oladilar va qadrlaydilar* (Blum, Perlmutter va Barrel 1999; Klat Villa, Tauzend,2002).

Samarali inklyuziya individual afzalliklar, ehtiyojlar va farqlarni tan olishni hamda ularni qabul qilishni o'zida mujassam etadi. Pedagoglar o'quvchining har birini alohida xususiyatlarini, ularning shakllanishiga ta'sir qiluvchi turli omillarni hisobga olmasdan o'qita olmaydilar (Tomlinson, 2003). Nogironlik, irq, tilni egallash

malakasi, jinsi va iqtisodiy holati kabi tomonlar bir-biriga chambarchas bog'liq bo'lib, ta'lim dasturini o'zlashtirishga va shaxslarning o'zaro munosabatlariga ta'sir ko'rsatadi; shu sababli pedagoglar, o'quvchilar va ularning oila a'zolari inklyuziv amaliyotga to'g'ri munosabatda bo'lishlari kerak. Bu esa o'z navbatida adolatlilik, hamkorlik tamoillarini bevosita amalga oshirishga, individual afzalliklar va ehtiyojlarini aks ettirishga hamda farqlarini qabul qilishga zamin yaratadi (Voltz, Brezil va Ford,2001; Sepon-Shevin 2003). Inklyuziv sinflarda barcha o'quvchilar o'qishga qobiliyatli va jamiyatga ulush qo'shuvchi shaxslar sifatida qadrlanadilar. Ularni farqlarini tushunishga, individual o'xshashliklari va farqlarini qadrlashga va shu orqali o'qishga hamda o'rganishga o'rgatadilar (Xan vab.sh.k.:, 2000).

Samarali inklyuziya pedagoglardan o'quvchilarga munosabatlarini qaytadan ko'rib chiqishni, baholash, o'qitish va sinfni boshqarish uslublarini o'quvchilarning individual ehtiyojlariga moslashtirish talab etiladi hamda o'quv dasturida ko'zda to'tilgan umumiy ta'lim maqsadlariga hamma o'quvchilarning teng ulgurishlarini ko'zda tutadi. Inklyuziv sinflarda o'qituvchi atrof muhitga qarab o'zgaruvchi mutaxassisdir va ular o'z o'quvchilarining kuchli tomonlari va ehtiyojlaridan yaxshi habardor bo'lgan mexribon hamda moslashuvchidir. Ular o'z kadriyatlarini va qarashlarini tanqidiy baholaydilar hamda faoliyatlarini doimiy ravishda o'zini mukammallashtirish va barcha o'quvchilarning ehtiyojlarini qanoatlantirish maqsadlariga yo'naltiradilar(Kosta va Kalik, 2000). Barcha pedagoglar o'quvchilarga ta'lim berishda individual yondashadilar hamda o'qitish uslublarini , shu jumladan baholash, umumiy ta'lim dasturiga kirish, ta'lim strategiyasi, texnologiyasi, universal va jismoniy dizayn, keraqli moslamalar, sinfni boshqarish texnikasi hamda boshqa o'quvchilar ehtiyojlariga qaratilgan resurslarga bog'liq usullarini moslashtiradilar. (Forl Deyvern).

Samarali inklyuziya - jamoa intilishidir; U pedagoglar va boshqa mutaxassislar, o'quvchilar, oilalalar va jamoat tashkilotlarining o'zaro hamkorligiga asoslangan jamiyatni o'z ichiga oladi (Xant, Soto, Mayer va Doyring,2003; Djekson, Rindek va Billingzli, 2000). Inklyuziya o'quvchilarning umum ta'lim tizimi sinflaridagi ehtiyojlarini hisobga oluvchi o'quvchilar jamiyatini tuzishga intiladi (Sepon-Shevin,2003). Odamlar o'zaro hamkorlikda va birgalikda ishlaydilar, jamiyat yaratadilar. Ular doimo munosabatda bo'ladilar, resurslar, majburiyatlar va tajriba bilan o'zaro almashinishadi, malum bir masalalarni o'quvchilar foydasiga xal bo'lishi yo'lida birlashadilar (Xant va bshk.:2000; Ruder 2000). Xalq ta'limi boshqarmalari ta'lim oluvchilarning ehtiyojlarini qondirishga yo'naltirilgan dasturlarini

restrukturizatsiyalash(qayta moslashtirish)dagi hamkorlikdagi faoliyatni qo'llab-quvatlaydilar, vaqt va resurs bilan taminlaydi.

Tadqiqotlar natijasida shu narsa aniqlandiki, oddiy sinfga kiritilgan qatnashchilardan ko'ra umuta'lim maktabining maxsus sinflariga kiritilganlar tajriba soxasida ijobiy natijalarga ega bo'lgan. Shuning uchun inklyuziv ta'limga saralash aniqlik talab etadi, chunki ayrim ta'lim turlari boshqasiga nisbatan samaraliroq natija beradi. Bu shuni anglatadiki, imkoniyati cheklangan bolalarni ta'limga to'liq jalb etish salbiy xolatlarga olib keladi. Zarur bo'lgan ta'lim olish xuquqi bilan ta'minlash uchun joylashtirishning bir qator usullaridan foydalanish mumkin. Ikkala tadqiqot natijasi imkoniyati cheklangan bolalarning oddiy sinflarda ta'lim olishi ma'naviy jihatdan shaxsning ta'lim olish xuquqini amalga oshirib bo'lmasligini tasdiqlaydi.

<p>Murtozayeva Muxlisa Alisherovna <i>Termiz Davlat Universitetining Pedagogika Instituti</i> <i>Maktabgacha ta'lim yo'nalishi 2-bosqich talabasi</i></p> <p style="text-align: center;">O'YIN BOG'CHA YOSHIDAGI BOLALARDA YETAKCHI FAOLIYAT SIFATIDA.</p>	<p>Elektron pochta manzili:</p>
--	--

Annotatsiya: *O'yin o'z mohiyati jihatidan katta kishilarning hatti –harakatlari va xulq-atvorlariga faol taqlid qilishdan iborat bo'lishi tufayli bolalarda ma'naviy sifatlarning mustahkamlanishi uchun va odob – axloq qoidalarini bilib olishlari uchun keng imkoniyatlar beradi. Maktabgacha yoshdagi bola o'yin jarayonida tabiblik yoki muallimlik rolini bajarayotgan bo'lsa, shu kasbga tegishli barcha sifatlarni namoyon qilishga intiladi.*

Kalit so'zlar:

Rolli, istak, faylasuf, sotsiolog, personaj, xatti-harakat, faoliyat, grammatik, ixtiyoriy.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Hasanboyeva O. va boshqalar . Oilada barkamol avlod tarbiyasi.
2. O'zbekiston Respublikasining ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan davlat talablari.
3. Bolalar psixologiyasi va psixodiagnostikasi.
4. Babayeva Nutq o'stirish nazariyasi va metodikasi.

1.KIRISH

Maktabgacha yoshdagi bolalar kattalar hayotini hamma tomonlarini o'z o'yinlarida aks ettira oladilar. O'yinning ahamiyati bola shaxsining o'sib kamolotga yetishiga ta'sir ko'rsatishdan iboratdir. O'yin har bir yosh bosqichda bolaning tevarak atrofdagi dunyoni va kishilar o'rtasidagi munosabatlarni bilib olishni ifodalaydi. Bolaning moddiy dunyoga, kishilarga o'z-o'ziga munosabati o'zgarayotgan o'yinda namoyon bo'ladi. Bolalarning ehtiyojlari, istak, qiziqish (xavas) lari bevosita o'yinda ifodalanadi. O'yin bolalarning xayolparastligi tufaydi narsalar va kishilar dunyosini ular uchun ma'qul tomonga "o'zgartirish" imkoniyatini beradigan faoliyatdir. Ma'lumki, bolalarning asosiy vaqti o'yin bilan o'tadi. O'yin maktabgacha yoshdagi bolalarni har tomonlama rivojlanishining muhim vositasi, ularning asosiy faoliyati bo'lib hisoblanadi. O'yin jarayonida bola shaxsi faoliyat sub'ekti sifatida shakllana boshlaydi. O'yin uzoq davrlardan beri mashhur olimlar, pedagog-psixologlar, faylasuflar, sotsiologlar, etnograflar va madaniyat arboblari diqqatini o'ziga qaratib kelingan dolzarb mavzudagi muamolardan biridir .

Maktabgacha yoshdagi bolalar o'yin faoliyati bilan birga ta'limiy mashg'ulotlarda ham ishtirok etadilar. Maktabgacha tarbiya yoshi davridagi ta'limiy mashg'ulotning asosiy mazmuni bolani atrof hayotdagi narsa va hodisalarning asosiy xususiyatlari bilan tanishtirish, og'zaki nutqni lug'at boyligi, tovushlarni to'g'ri talaffuz qilish, grammatik tomondan to'g'ri so'zlashishga o'rgatish, bog'lanishli nutqni shakllantirishdan iborat, elementar mavhum tushunchalarga ega bo'lish, jismoniy tarbiya, tasviriy san'at qirqib yopishtirish, rasm, loy yoki plastilindan turli buyumlar yasash, qurilishi materiallar bilan ishlash, muzika va boshqa mazmundagi mashg'ulotlar bolani aqliy jihatdan maktab ta'limini egallashga tayyorlash imkonini beradi.

Ko'pchilik psixologlar hamda pedagoglar o'yinning psixologik masalalari bilan bevosita shug'ulanib ,o'yinlarning bolaning psixik kamol toptirishdagi ahamiyatiga alohida to'xtalib o'tganlar , ma'lumki o'yin bola uchun voqeolikni aks ettirishdir bu voqelik bolani qurshab turgan voqealikdan ancha qiziqarlidir. O'yining qiziqarliligi uni anglab yetishning osonligidadir. Kattalar hayotida faoliyat, xizmat ,yumush qanday ahamiyatga ega bo'lsa bola hayotida o'yin ham shunday ahamiyatga ega Jahon psixologiyasi fanida ma'lumotlarga ko'ra eng sodda psixik jarayondan eng murakab psixik jarayonlar hammasining eng muhim jihatlarini shakllantirishda o'yinlar katta rol o'ynaydi. Maktabgacha yoshdagi bola muayyan xususiyatga ega bo'lgan rolni tanlaydi ,shu bilan birga u yoki bu personajga xos qat'iy yurish –turishni ongli ravishda ijro etishga intiladi. Shunday ekan ,o'yin maskur bola uchun eng zarur faoliyatga aylana boradi va yangi shakldagi xarektirlarni takomillashtirish, ularni anglagan holda esga yushurish ehtimoli yaqqol voqealikka aylana boshlaydi. Maskur harakatlarni egallash bolada jismoniy mashqlarni ongli ravishda bajarish imkoniyatni vujudga keltiradi. Bolaning o'yinlar shart-sharoitidan-kelib chiquvchi ongli maqsadi harakatlarni bajarish kezida o'z ifodasini topadi va uning o'z oldiga qo'yg'an maqsadi esda olib qolish va esga tushurish jarayonlariga aylanadi .Bolalar laboratoriya sharoitiga nisbatan o'yinlarda ko'proq so'zlarni eslab qolish va esga tushirish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Bu esa ixtiyoriy xotira xususiyatini chuquroq ochishga yordam beradi. O'yin faqat bilish jarayonlarni takomillashtirib qolmay, bolaning xulq- atvoriga ham ijobiy tasir ko'rsatadi.

XULOSA

Yuqoridagi mulohazalar asosida aytish mumkinki, katta kishilar hayoti va faoliyatining o'rnini bosuvchi ashyolar ularning harakatini umumlashgan holda ifodalashning moddiy tayanchi hisoblanadi. SHunday ekan, o'yin faoliyatida bola harakatining rivojlanishi o'yin mazmuniga ko'proq bog'liqdir. CHunki bolaning xatti-

harkati qanchalik ihcham va umumlashgan bo'lsa, u kattalarning faoliyati mazmunini aks ettirishdan shunchalik yiroqlashadi. Binobarin, u odamlarning narsalarga va bir-biriga munosabatini amalda bajarishga o'tadi va shuning uchun narsalar bilan harakat qilishda kattalarning ijtimoiy munosabatlarini to'g'ri ifodalashga intiladi.